

3

O‘QUVCHILARNI
XALQARO TADQIQOTLARGA
TAYYORLASHGA MO‘LJALLANGAN

# AXBOROTNOMA

2021-№3

IEA

PIRLS

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
TA’LIM SIFATINI NAZORAT QILISH DAVLAT INSPEKSIYASI

TA’LIM SIFATINI BAHOLASH BO‘YICHA XALQARO TADQIQOTLARNI
AMALGA OSHIRISH MILLIY MARKAZI

O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan

# AXBOROTNOMA

## 3

**(Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan topshiriqlar to‘plami)**



“Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi”

TOSHKENT — 2021

UO‘K 808.545(079.1)
KBK 78.303в6
A – 90

**Fizika-matematika fanlari doktori, professor U.N.Tashkenbayevning umumiy tahriri ostida**

*Tuzuvchilar:*

**A.A.Ismailov** – Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi direktori – PISA xalqaro tadqiqoti milliy loyiha menejeri;

**X.J.Daminov** – Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi direktori o‘rinbosari;

**Q.K.Karimberdiyev** – Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi bo‘lim boshlig‘i;

**Z.Sh.Islomova** – Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi bosh mutaxassisi.

*Taqrizchilar:*

**N.M.Djusupov** – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistratura bo‘limi boshlig‘i, filologiya fanlari doktori (DSc)

**Sh.F.Zayniddinova** – Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi 217-sonli maktabning oliy toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Mazkur axborotnoma (topshiriqlar to‘plami) Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan o‘tkaziladigan PIRLS (The Progress in International Reading Literacy Study) tadqiqoti doirasida foydalanilgan materiallar asosida tuzilgan.

Mazkur nashrda PIRLS dasturidagi boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholashga mo‘ljallangan topshiriqlardan namunalar, ular ustida ishlash bo‘yicha tavsiyalar hamda baholash mezonlari keltirilgan.

Axborotnoma (topshiriqlar to‘plami)dan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va o‘quvchilari foydalanishlari mumkin.

Axborotnoma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ilmiy kengashining 2021-yil 29-martdagi yig‘ilish (1-son bayonnomasi) qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6960-2-0

**UO‘K 808.545(079.1)**
**KBK 78.303в6**

**ISBN 978-9943-6960-2-0**

© A. Ismailov va b.

## MUNDARIJA


Kirish......................................................................................4

**1. PIRLS tadqiqoti haqida umumiy ma'lumot** ........................................ 7

1.1. PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligi ........................................9

**2. PIRLS tadqiqotlarida foydalanilgan matn va topshiriqlar.................17**

**Badiiy matnlar**

2.1. Marvarid.............................................................................18

2.2. Tikuvchi............................................................................. 30

2.3. Choriningqobiliyati.............................................................37

2.4. Xaloskor delfin ....................................................................46

**Axborot beruvchi matnlar**

2.5. Afrika karkidonlari va okspeker qushlari......................................55

2.6. Kuchuk tarbiyalash..............................................................68

2.7. Ozuqa izlab..........................................................................75

2.8. Fazoga sayr..........................................................................84

**3. PIRLS tadqiqoti doirasidagi matnlarning topshiriqlarini baholash bo'yicha yo'riqnoma** .......................................................93

**4. PIRLS tadqiqotlarida foydalanilgan matnlar yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarni baholash mezonlari** ..................................99

# KIRISH

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori[1] asosida xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik koʻrishga kirishilgan boʻlib, Ta'lim sifatini baholash boʻyicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan PIRLS, TIMSS, PISA dasturlariga doir oʻquvchilarning oʻqish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligi, ijodiy fikrlashini baholash va rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish hamda joriy etishga yoʻnaltirilgan ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Ushbu izlanishlar qatorida, amaliy tadqiqotlar sifatida PISA dasturi talablari asosida Oʻquvchilarning savodxonligini baholash boʻyicha Milliy tadqiqot, Inson kapitali indeksi-2020 loyihasi doirasidagi ta'lim sifati komponenti uchun TIMSS dasturi talablari asosidagi tadqiqot, Oʻquvchilarning oʻqish savodxonlogini baholash boʻyicha PIRLS dasturi doirasidagi tajriba-sinov, shuningdek, COVID-19 pandemiyasining ta'lim jarayoniga ta'sirini oʻrganishga qaratilgan ta'limdagi uzilishlarga javoblar REDS tadqiqotlarini misol qilib keltirish mumkin.

Shuningdek, Oʻzbekiston ta'lim tizimi uchun yangi hisoblangan, yuqorida nomlari keltirilgan xalqaro tadqiqotlar boʻyicha salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan materiallar, ya'ni targʻibot-tashviqot, oʻquv, uslubiy va didaktik materiallar, mashq daftarlari, videomateriallarni keltirish mumkin. Shuningdek, Oʻquvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga moʻljallangan Axoborotnoma davriy nashri yoʻlga qoʻyilib, 1 va 2-sonlari nashrdan chiqarilgan edi.

Endilikda, mazkur materiallar va qoʻllanmalarning mantiqiy davomi sifatida Axborotnoma davriy nashrning 3-soni jamoatchilik e'tiboriga havola etilmoqda.

Axborotmaning ushbu soni tuzilishi jihatidan oʻxshash boʻlsada, lekin mazmun jihatidan avvalgilaridan tubdan farq qiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, avvalgi sonlardagi materiallarda PISA xalqaro dasturining yoʻnalishlari, ya'ni oʻqish, matematik, tabiiy-ilmiy savodxonlik hamda kreativ fikrlashni baholash va rivojlantirishga oid ma'lumotlar berilgan boʻlsa, ushbu son Oʻquvchilarning oʻqish savodxonligini baholash PIRLS xalqaro tadqiqotiga bagʻishlanadi.

[1]Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son qarori

Axborotnomaning birinchi qismida PIRLS xalqaro dasturi haqidagi umumiy ma'lumotlar bilan boshlanadi, shuningdek, oʻquvchilar uchun oʻqishning ahamiyati va dolzarbligi, xususan PIRLS dasturi doirasida baholanadigan yoshdagi oʻquvchilar endigina oʻqish koʻnikmasini hosil qilib, ushbu koʻnikmadan boshqa fanlarni oʻrganishga kirishayotgani xususidagi fikrlar keltiriladi. Shu bilan birga, oʻqishdan koʻzlangan maqsad, uning oʻziga xos xususiyatlari, matnlarning tuzilishi va asosiy jihatlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan oʻzlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qoʻllay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratiladi. Oʻquvchi va matn oʻrtasidagi oʻzaro munosabat oʻrnatilsagina matnning mazmuni anglashiladi va oʻqishdan koʻzlangan maqsadga erishiladi. PIRLS baholash dasturi uchun matnlarni saralab olishda asosiy jihat oʻqishdan koʻzlangan maqsadlardan kelib chiqib, bir necha matn turlarini taqdim etishdir. Bunda, asosiy maqsad oʻquvchilar uchun ham maktabda ham maktabdan tashqarida olib boriladigan oʻqish mashgʻulotlariga oʻxshash muhit yaratishdan iboratdir.

Mazkur nashrdagi materiallar PIRLS dasturidagi boshlangʻich 4-sinf oʻquvchilarining matnni oʻqish va tushunish darajasini baholashga oid ma'lumotlar hamda topshiriqlar asosida tayyorlangan boʻlib, unda avvalgi yillarda oʻtkazilgan tadqiqotlarda foydalanilgan topshiriqlardan namunalar, ular ustida ishlash boʻyicha tavsiyalar hamda baholash mezonlari keltirilgan.

PIRLS boshlangʻich sinf oʻquvchilarining sinf va sinfdan tashqari oʻqishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsad, ya'ni badiiy tajriba orttirish hamda Axborotni olish va undan foydalanishga qaratilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, badiiy kitoblarni oʻqishda oʻquvchilar voqealar, voqea joylari, obrazlar, oqibatlar, personajlar, asar muhiti, hissiyotlar va gʻoyalar bilan yoʻgʻrilgan matnni oʻqiydi va matndan huzurlanadi. Adabiyotni tushunish va uni qadrlash uchun, har bir oʻquvchi matnda (asarda) sodir boʻladigan voqealar, hissiyotlar, tildan foydalanish san'ati hamda badiiy shakl haqida bilimni oʻz hayolidan oʻtkazishi kerak. Adabiyot yosh oʻquvchilar uchun oʻzlari hali boshidan kechirmagan holatlar va hissiyotlarni kashf etish imkoniyatini beradi. Badiiy asarda tasvirlangan voqealar, harakatlar va oqibatlar hayoliy boʻlsada, oʻquvchiga ular real hayotda sodir boʻlayotgandek tasavvur uygʻotadi va oʻquvchiga ularni hayolan boshidan kechirish imkonini beradi. PIRLS xalqaro dasturida qoʻllanilgan matnlarning bir qismi badiiy janrga mansub boʻladi.

Axborot beruvchi matnlar esa, qator vazifalardan kelib chiqib yoziladi va oʻqiladi. Binobarin, axborot beruvchi matnlarning asosiy vazifasi maʼlumot berishdan iborat boʻlgani sababli, odatda yozuvchilar oʻzlari yoritmoqchi boʻlgan mavzuga turli maqsad bilan yondashganligi namoyon boʻladi. Koʻpgina axborot beruvchi matnlarda faktlar biror topshiriqni bajarish bosqichlari yoki biografik tafsilotlar kabi toʻgʻridan-toʻgʻri bayon etiladi. Shunga qaramasdan, ayrim axborot beruvchi matnlar subyektiv xususiyatga ega. Misol uchun, mualliflar izohlovchi mulohazalar, undash xususiyatli insholar yoki puxta oʻylab chiqilgan mulohazalar orqali izohlar va faktlarni oʻquvchiga yetkazib berishi mumkin. Oʻquvchi oʻz dunyoqarashini shakllantirish uchun mazkur matnlarga tanqidiy yondashishi kerak. Oʻquvchi matnlarning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunishi uchun undagi maʼlumotlar boshqacha tartibda, yaʼni uning mazmuni, tuzilishi va shakli oʻzgartirilgan holda taqdim etilishi mumkin.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari turli mavzularni qamrab olgan badiiy va axborot beruvchi matnlarni, jumladan, ilmiy, tarixiy, joʻgʻrofiy yoki ijtimoiy matnlarni oʻqishlari mumkin.

Axborotnomada berilgan topshiriqlar oʻqituvchi va oʻquvchilarga PIRLS tadqiqoti topshiriqlarining turlari, ularning berilishi va bayon qilinish usullari, oʻziga xos xususiyatlari haqida tasavvurlarni boyitishga yordam beradi.

Undan boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari oʻquvchilarning oʻqish savodxonligini rivojlantirish maqsadida darsdan tashqari va toʻgarak mashgʻulotlari davomida foydalanishlari tavsiya etiladi.

# 1. PIRLS TADQIQOTI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

2021-yilda oʻtkaziladigan PIRLS xalqaro baholash dasturida 60 dan ortiq davlatlar qatorida mamlakatimizdagi 4-sinf oʻquvchilari ham ilk marotaba ishtirok etadi.

Ushbu xalqaro dastur bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida katta ahamiyat kasb etib, boshlangʻich ta'limda tahsil olayotgan oʻquvchilarning oʻqib tushunish koʻnikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi. PIRLS dasturida asosiy e'tibor 4-sinf oʻquvchilariga qaratiladi, buning boisi odatda, ushbu rivojlanish davrida oʻquvchilar oʻqish koʻnikmasini hosil qilgan boʻlib, endi bu koʻnikmadan boshqa fanlarni oʻrganishda foydalanayotgan boʻladi.

Ma'lumki, oʻqish savodxonligi insonlarning oʻqishdan koʻzlagan maqsadlari bilan bevosita bogʻliqdir. Koʻpgina yosh oʻquvchilar endigina oʻqishni boshlaganlarida asosan hikoyali matnlar (masalan, hikoyalar yoki suratli kitoblar) yoki oʻquvchilarga oʻzlarini oʻrab turgan muhit haqida informatsion va savollariga javob beruvchi ma'lumotlarga boy matnlarni oʻqiydi. Oʻquv dasturiga koʻra, kitob va boshqa bosma materiallardan ma'lumot olish uchun oʻqish muhim ahamiyatga ega ekanligi bois, yosh oʻquvchilar oʻqish savodxonligini rivojlantirib, oʻrganish uchun oʻqishlari kerakligi talab qilinmoqda.

Odatda oʻqishdan koʻzlangan har qanday maqsad ma'lum turdagi matnlar bilan bogʻliqlikka ega. Misol uchun, badiiy savodxonlikni oshirish uchun oʻqish odatda fantastik asarlarni mutolaa qilish bilan bogʻlangan, vaholanki, ma'lumot olish va ulardan foydalanish esa ma'lumotga boy maqolalar va koʻrsatmaga oid matnlarni oʻqish orqali amalga oshiriladi. Shunga qaramasdan, oʻqishdan koʻzlangan maqsadlar alohida matn turi bilan cheklanib qolmaydi. Masalan, tarjimai hollar odatda axborot beruvchi yoki badiiy matn turkumiga mansub material hisoblanadi, ammo ular oʻqishdan koʻzlangan har ikkala maqsad xususiyatlarini oʻz ichiga oladi.

Matnlar odatda, ulardan anglashilgan mazmunni turli usulda shakllantirish yordamida, ularda aks etgan fikr-mulohazalarni qay tartibda tashkillashtirilgani va taqdim etilganiga qarab farqlanadi. Matnlar tuzilishi va shakliga koʻra, yozma materiallari tartib bilan

joylashtirilgan matnlardan to tasvirli va jadvalli ma'lumotlar bilan to'ldirilgan qisqa so'zlar va iborali matnlargacha bo'lib, bir-biridan keskin farq qiladi. Ma'lum matn janriga xos bo'lgan mazmun, tarkib va uslub o'quvchiga matnni o'qib tushunishiga yaqindan yordam beradi.

PIRLS xalqaro dasturi o'quvchilarning matnni o'qib tushunishlari, yangidan-yangi g'oyalar, boshqa madaniyatlar va turli mamlakatlar haqida tasavvurga ega bo'lishlariga imkon beradigan qobiliyat haqida kengroq tushunchaga ega bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

O'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalari qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. O'quvchi va matn o'rtasidagi o'zaro munosabat o'rnatilsagina matnning mazmuni anglashiladi va o'qishdan ko'zlangan maqsadga erishiladi. PIRLS baholash dasturi uchun matnlarni saralab olishda asosiy jihat o'qishdan ko'zlangan maqsadlardan kelib chiqib, bir necha matn turlarini taqdim etishdir. Bunda, asosiy maqsad o'quvchilar uchun ham maktabda ham maktabdan tashqarida olib boriladigan o'qish mashg'ulotlariga o'xshash muhit yaratishdan iboratdir.

O'quvchi bu jarayonning faol ishtirokchisi bo'lib, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar,

hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli koʻrinishdagi yozma matnlarni ham oʻz ichiga oladi.

## 1.1. PIRLS TADQIQOTIDA OʻQISH SAVODXONLIGI

Oʻqish savodxonligining taʼriflari juda koʻp. Oʻqish savodxonligi - tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan hamda jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir. Oʻquvchi turli shakldagi matnlardan mazmun hosil qiladi. Ular oʻrganish, maktab va kundalik hayotda oʻzlari kabi boshqa oʻquvchilar jamoasiga qoʻshilish va vaqtini samarali oʻtkazish uchun oʻqiydilar.

Oʻqish savodxonligi – shaxs oʻzining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda oʻz oʻrnini topish maqsadiga erishishi yoʻlida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati hamdir.

Oʻqish jarayonining boshlanishi, oʻrtasi va oxirida oʻquvchi til koʻnikmalarining, kognitiv va metakognitiv strategiyalar hamda mazmun shakllantirishda birlamchi bilim va koʻnikmalar majmuasidan foydalanadi. Bundan tashqari, oʻqish muhitini yuzaga keltiradigan sharoit oʻquvchini oʻqishga ragʻbatlantirish va qiziqtirish orqali matn mazmunini shakllantirishga yordamlashadi, ammo sharoit matn mazmunini tushunish imkonini bermaydigan muayyan talablarni yuzaga keltirishi ham mumkin. Oʻquvchi oʻzini oʻrab turgan dunyo va oʻzi haqida tasavvurga ega boʻlishi uchun turli matnlarni oʻqib oʻrganishi mumkin. Har bir turdagi matn oʻquvchiga matnni talqin qilishiga imkon beruvchi sodda shakllar va qoidalardan iboratdir.

Sinf xonasi yoki maktab kutubxonasida yaratilgan ijtimoiy muhit boshlangʻich sinf oʻquvchilariga oʻqish jarayoni ularning oʻqituvchilari va sinfdoshlari bilan bilim va tajriba almashishda dunyoqarashlarini kengaytirish imkoniyatini beradi. Oʻquvchilar oʻz oila aʼzolari va tengqurlari bilan oʻqishdan olgan maʼlumotlar va gʻoyalar haqida suhbatlashar ekan, bu muhit chegarasi maktabdan tashqariga ham choʻziladi.

Hozirgi vaqtda PIRLS taʼrifiga koʻra, oʻqish savodxonligi jamiyat

tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholash ikkita keng qamrovli maqsadga qaratilgan.




Badiiy kitoblarni o'qishda o'quvchilar voqealar, voqea joylari, obrazlar, o'qibatlar, personajlar, asar muhiti, hissiyotlar va g'oyalar bilan yo'g'rilgan matnni o'qiydi va matndan huzurlanadi. Adabiyotni tushunish va uni qadrlash uchun, har bir o'quvchi matnda (asarda) sodir bo'ladigan voqealar, hissiyotlar, tildan foydalanish san'ati hamda badiiy shakl haqida bilimni o'z hayolidan o'tkazishi kerak. Adabiyot yosh o'quvchilar uchun o'zlari hali boshidan kechirmagan holatlar va hissiyotlarni kashf etish imkoniyatini beradi. Badiiy asarda tasvirlangan voqealar, harakatlar va oqibatlar hayoliy bo'lsada, o'quvchiga ular real hayotda sodir bo'layotgandek tasavvur uyg'otadi va o'quvchiga ularni hayolan boshidan kechirish imkonini beradi.

Matn (yoki badiiy asar) asarning hikoya qilib beruvchi yoki uning asosiy qahramonini kelajakda nima qilmoqchi ekanini bildirib turishi mumkin. Murakkabroq matnlar esa undanda ko'proq dunyoqarash yoki keskinliklarga ega bo'lishi mumkin. Matnning g'oyasi va undagi ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri yoki dialoglar hamda voqealar ko'rinishida tasvirlanadi. Qisqa hikoyalar yoki asarlar odatda voqealarni xronologik

tartibda bayon qiladi yoki asar voqealariga qaytish yoki vaqtni avvalga qaytarish orqali bayon qiladi. PIRLS xalqaro dasturida qoʻllanilgan badiiy matnlarning asosiy shakli badiiy janrga mansub boʻladi. Ishtirokchi mamlakatlardagi oʻquv dasturlari va madaniy jihatdan yuzaga keladigan farqlaridan kelib chiqib, PIRLS xalqaro dasturi doirasida ayrim badiiy matnlarni topshiriq sifatida tanlab olish qoʻshimcha murakkablik tugʻdiradi. Misol uchun, sher'iy matnlarni tarjima qilish oʻquvchilar uchun qiyinlik tugʻdirgani bois, ularni topshiriqlarga qoʻyilmaydi.

Axborot beruvchi matnlar qator vazifalardan kelib chiqib yoziladi va oʻqiladi. Binobarin, axborot beruvchi matnlarning asosiy vazifasi ma'lumot berishdan iborat boʻlgani sababli, odatda yozuvchilar oʻzlari yoritmoqchi boʻlgan mavzuga turli maqsad bilan yondashadi. Koʻpgina axborot beruvchi matnlarda faktlar biror topshiriqni bajarish bosqichlari yoki biografik tafsilotlar kabi toʻgʻridan-toʻgʻri bayon etiladi. Shunga qaramasdan, ayrim axborot beruvchi matnlar subyektiv xususiyatga ega. Misol uchun, mualliflar izohlovchi mulohazalar, undash xususiyatli insholar yoki puxta oʻylab chiqilgan mulohazalar orqali izohlar va faktlarni oʻquvchiga yetkazib berishi mumkin. Oʻquvchi oʻz dunyoqarashini shakllantirish uchun mazkur matnlarga tanqidiy yondashishi kerak. Oʻquvchi matnlarning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunishi uchun undagi ma'lumotlar boshqacha tartibda, ya'ni uning mazmuni, tuzilishi va shakli oʻzgartirilgan holda taqdim etilishi mumkin. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari turli mavzularni qamrab olgan axborot beruvchi matnlarni, jumladan, ilmiy, tarixiy, joʻgʻrofiy yoki ijtimoiy matnlarni oʻqishlari mumkin.

Oʻqishdan koʻzlangan har ikkala maqsad ham boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun birdek muhim boʻlgani bois, PIRLS dasturi har bir maqsadni baholovchi, bir xil miqdordagi materiallardan tashkil topadi. Oʻz navbatida, ushbu maqsadlarning har biri toʻrtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular:




Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlarni topish:

- O‘qishdan ko‘zlangan muayyan maqsadga bog‘liq ma’lumotni aniqlash va qidirish;
- Ma’lum mulohazalarni qidirish;
- Matndagi so‘z yoki iboralar ta’rifini qidirish;
- Hikoyaning sodir bo‘lgan joyi va vaqtini aniqlash;
- Matnning asosiy mavzusini topish (aniq bayon etilgan bo‘lsa);
- Chizmadagi ma’lum ma’lumotni aniqlash.

✓ To‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosalar chiqarish:

- Biror voqea boshqasini sodir bo‘lishiga sabab bo‘lishi haqida mulohaza yuritish;
- Asar qahramonining hatti-harakatlarini asoslash;
- Asarning ikki qahramoni o‘rtasidagi munosabatni tasvirlash;
- Matnning aynan qaysi qismi muayyan maqsad uchun xizmat qilishini aniqlash.

✓ Kontent, til va matn elementlarini tekshirish va baholash:

- Matnda berilgan ma’lumotlarni to‘liqligi yoki aniqligini muhokama qilish;
- Matnda tasvirlangan voqealar chindan sodir bo‘lishi ehtimolini baholash;
- Muallif tomonidan ilgari surilgan mulohaza insonlarni o‘y-hayollari va turmush tarzini qay darajada o‘zgartirishi mumkinligini baholash;

- Matn sarlavhasi uning asosiy mavzusini qay darajada yoritib berishini muhokama qilish;
- Metafora yoki uslubiyat kabi til vositalari ta'sirini tasvirlash;
- Matndagi ko'rgazmali vositalar ta'sirini aniqlash;
- Matndagi yondashuvlar yoki noaniqliklarni aniqlash;
- Muallifning matnnning markaziy mavzusi borasidagi maqsadini aniqlash.

✓ G'oyalar va ma'lumotni talqin qilish va umumlashtirish:

- Matnning umumiy mazmuni yoki mavzusini tushunish;
- Hikoya qahramonining hatti-harakatlariga muqobil hatti-harakatlarni inobatga olish;
- Matnda berilgan ma'lumotlarni qiyoslash va zidlash;
- Hikoya ruhiyati yoki mohiyati ustida mulohaza yuritish;
- Matnda berilgan ma'lumotni hayotiy voqealar (ma'lumotlar) orqali talqin etish;
- Matnlarning o'zida va umumiy tarzda berilgan ma'lumotlarni qiyoslash va zidlash.

✓ Matnni baholash va tanqidiy tahlil qilish:

- Matnda berilgan ma'lumotning aniq va to'liqligini baholash;
- Tasvirlangan voqeani haqiqatan sodir etilishi ehtimolini baholash;
- Insonlarning o'ylari va bajaradigan ishlarini o'zgartirishda muallifning fikrlari qanchalik aniqligini baholash;
- Matn sarlavhasi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishini baholash;
- Metafora yoki nutq ohangi kabi til xususiyatlari ta'sirini tasvirlash;
- Muallifning asosiy mavzuga oid qarashlarini aniqlash.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun

400–500 ta, ePIRLSda esa, taxminan 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi.

**Mavzu:** Badiiy matnlar asosiy mavzuga ega bo'lib, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlashtiriladi. Axborot matnlari o'quv materiallardan olinmagan mavzuni yoritib berishi kerak.

**Til:** 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadi, shuning uchun tarjima qulay bo'lishi muhimdir. Metafora yoki epitet kabi aniq ifodali tasvirlash so'zlari

tanlanadi. Hech qanday soʻzlashuvga oid soʻz yoki jargon ishlatilmaydi hamda ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi.

**Mazmun:** matnning mazmuni 9–10 yoshdagi oʻquvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi, ayrim madaniyatlarga juda xos boʻlgan mavzulardan chetlanishi, shuningdek, matn shu yoshdagi maktab oʻquvchilari uchun qiziqarli va zavqli boʻlishi hamda oʻquvchi uchun unchalik tanish boʻlmasligi lozim.

**Bogʻliqlik va ketma-ketlik:** syujetning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish muhimdir. Axborot matnida matnning tuzilishi va maʼlumotning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi vizual elementlar bilan bogʻliqligini kuzatish mumkin.

PIRLS tadqiqotida oʻqish savodxonligining darajalari.

PIRLS tadqiqotida oʻqish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi:

- Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – Oʻquvchilar matnni yaxlit oʻzlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bogʻliq holda tushunadi. Muallifning gʻoyasini izohlashda oʻz fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi.
- Yuqori daraja (550 ball) – Oʻquvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib oʻz xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga eʼtibor qarata oladi.
- Oʻrta daraja (475 ball) – Oʻquvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining baʼzi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan oʻz xulosalarini chiqaradi.
- Quyi daraja (400 ball) – Oʻquvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson boʻlgan xabarni ajratib oladi.

**Tadqiqotning ahamiyati.**



Tadqiqotda dunyo mamlakatlari, jumladan Oʻzbekistonning boshlangʻich taʼlim bitiruvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan qanchalik darajada yaxshi oʻqiydi? Oʻquvchilarning oʻqish savodxonligi qay darajada? Oʻqish 4-sinf oʻquvchilari uchun sevimli mashgʻulotmi? Oila tomonidan savodxonlikni rivojlantirishga qanday hissa qoʻshilmoqda? Bugungi kunda mamlakatda oʻqishni oʻrgatish jarayoni qanday tashkil etilgan? Oʻqishni oʻrgatish

jarayonining boshqa davlatlarga nisbatan oʻziga xosligi bormi, agar shunday boʻlsa u nimada namoyon boʻladi? Boshlangʻich sinflarimizning oʻqituvchilari foydalanayotgan metodlar boshqa mamlakat oʻqituvchilari foydalanayotgan metodlardan farq qiladimi? kabi asosiy masalalar oʻrganiladi.

Ota-onalar soʻrovnomasida ota-onalar haqidagi maʼlumotlar, oiladagi taʼlimiy resurslar, farzandini maktabga tayyorlash, uning maktabga qabul qilinishidan avvalgi koʻnikma va malakalari, ota-onalarning maktabga va oʻqishga munosabati oʻrganiladi. PIRLS xalqaro dasturida oʻquvchilarning oʻqib oʻzlashtirish koʻrsatkichlarini rivojlantirishda ularning yashash sharoitlari bilan bogʻliq omillarni qanchalik ahamiyatga egaligini koʻrsatib oʻtilgan. Oʻqishni yoqtiradigan va oʻzlari ham mutolaa qilib turadigan ota-onalar farzandlari uchun eng yaxshi namuna boʻladi. Uyda oʻqish muhitini yaratilishi bolaning oʻqishga boʻlgan ragʻbatini oshirishga va oʻqib oʻzlashtirish koʻrsatkichini yaxshilashga turtki boʻlishi mumkin. Ota-onalarning oʻqish tarzi va oʻqish haqidagi tasavvurlari ham bolaning oʻqishga nisbatan ragʻbatlantirilishiga yordam beradi. Ijtimoiy muomalaga kirishish oʻta nozik jarayon boʻlib (masalan, oʻzlaridan katta opa yoki akalarini oʻqiyotganini, oʻqish uchun turli materiallardan foydalanayotganini koʻrgan bolalar), mazkur jarayon oʻquvchining oʻzlashtirish darajasiga katta taʼsir koʻrsatadi.

Maktab maʼmuriyati soʻrovnomasi orqali maktabning quvvati, joylashuvi, jihozlanishi, taʼlim resurslari, maktabda oʻquv jarayonining tashkil etilishi, maktab muhiti oʻrganilib, tahlil qilinadi. Oʻquvchilarning yuqori oʻzlashtirish koʻrsatishlari uchun maktabda yaratib berilgan sharoit maktabning ham yutugʻi hisoblanadi. Izlanishlar natijasiga koʻra, oʻquvchilarning yuqori oʻzlashtirish koʻrsatkichlarni koʻrsatishida maktabning tutgan oʻrni va oʻquvchilarning oʻqib oʻzlashtirishlari oʻrtasida ijobiy bogʻlanish borligi isbotlangan. Oʻqitish jarayonining ahamiyati, oʻqitish jarayonini tashkil etishda birgalikdagi samaradorlik (hamkorlik, ishlash), maktab ishchi-xodimlari, ota-onalar va oʻquvchilar ortasidagi oʻzaro ishonch maktabda ijobiy oʻquv jarayonini yaratishda xizmat qiladigan omil hisoblanib, bu omillar, oʻz navbatida, ijobiy oʻquv muhitini hosil qiladi.

Tadqiqotning 2016-yil natijalariga koʻra, 50 ta mamlakat ichida, Rossiya, Singapur, Gonkong, Irlandiya va Finlyandiya mamlakatlari yuqori natijalarni qayd etgan boʻlsa, shular orasida rossiyalik va singapurlik oʻquvchilar matnni oʻqish va tushunish boʻyicha eng yuqori natijalarni koʻrsatgan. Shuningdek, Rossiyaning boshlangʻich sinf oʻquvchilari ushbu mezon boʻyicha dunyoda yetakchilik qildi.

***Mazkur davlatlarda oʻqish savodxonligi boʻyicha yuqori natijalar quyidagi omillar bilan bogʻliq:***

- *Uydagi kitoblar va raqamli qurilmalarning mavjudligi*
- *Ziyoli ota-onalar va ularning kitobga boʻlgan muhabbati*
- *Bola maktabga borgunga qadar oʻqish-yozishni oʻrganganligi hamda maktabgacha taʼlim muassasalariga qamrab olish koʻrsatkichining yuqoriligi.*

# 2. PIRLS TADQIQOTLARIDA FOYDALANILGAN MATN VA TOPSHIRIQLAR

# Marvarid

*Muallif: Meri Joslin*
*Rassom: Meil So*



Dengiz bo‘yida bolalar birga o‘ynashar edi. Boy yoki kambag‘al, barchasi birdek o‘yinlarga qo‘shilishdi.

Bir kuni ular chuqurroq suvga sho‘ng‘ish uchun borishdi.

«Qarang!» - deb baqirdi bola. «Men topgan narsaga qarang!»

«Bu marvarid»,- dedi boshqasi. «Bu chiroyli»

Bolalar uni ko‘rish uchun yig‘ildilar. Ularning barchasi marvaridning naqadar mukammal va yorqinligini ko‘rib, unga tegib ko‘rishga mushtoq edi. Ammo bir savolni berishga kim ham jur’at eta olardi ...

1. Bola marvaridni qayerdan topdi?

Ⓐ sohildan

Ⓑ dengiz yonidan

Ⓒ ular o‘yin o‘ynayotgan joydan

Ⓓ suvning chuqurroq qismidan

2. Nima uchun bolalar marvaridga qo‘l tekkizishga mushtoq edi?

Ⓐ Ular olib ketmoqchi edi.

Ⓑ Ular uni o‘ziga xos deb o‘yladilar.

Ⓒ Bola marvaridni tushirib yuboradi deb o‘ylashdi.

Ⓓ Ular uning haqiqiyligiga ishonmadilar.

“Buni olsam boʻladimi? iltimos. Bu juda chiroyli”. Bu birinchi boʻlib gapirgan bola edi.

“Bu haqiqatdan ham Joshniki. U topdi,” - dedi qizlardan biri.

“Sen buni olishing mumkin, Ruben, - dedi Josh, - chunki bu senga juda yoqdi”.



Oʻsha kundan boshlab, boshqa bolalar Rubenni kamroq koʻrishdi. Ular toza havoda oʻynashayotganda, Ruben ichkarida qolib marvaridlar haqida oʻqiyotgan boʻlardi. U dengizda yashovchi chigʻanoq ichida marvaridlarning qanday qilib oʻsishini bilib oldi.

Oilasi undan sovgʻa uchun nima istayotganini soʻraganda, u doimo marvarid soʻragan edi. «Men katta boʻlganimda marvarid savdogari boʻlaman», - derdi u.

3. Nima uchun qiz marvarid haqiqatdan ham Joshniki, deb aytdi?

1 1. ____________________

4. Nima uchun Josh Rubenga marvaridni olishi mumkinligini aytdi?

1 1. ____________________

5. Ruben marvaridni olganidan soʻng hayotida qanday oʻzgarishlar qildi?
Ikkita misol keltiring.

1 1. ____________________

1 2. ____________________

Shunday ham bo‘ldi. U bolaligidagi do‘stlari bilan xayrlashib, uning uyi joylashgan dengiz bo‘yidagi shaharni tark etdi.

U marvaridlar sotiladigan va sotib olinadigan katta shaharga bordi.

U o‘zining bir nechta kichikroq marvaridlarini kattaroq va yaxshiroqlariga almashtirdi.

U shundan keyin baliqchilar to‘rlarini suvga tashlaydigan okean qirg‘og‘iga bordi va yangi marvaridlar uchun chig‘anoqlar izladi. Buning natijasida u dumaloq va yaxshi bir marvaridni topdi.



6. Ruben shaharni tark etgach qayerga bordi?

_______________________________________________

7. Nima uchun Ruben to‘rlarini suvga tashlaydigan baliqchilarni izladi?

Ⓐ U yangi baliq sotib olishni xohladi.

Ⓑ U ularning baliqchi qayiqlarida yurishni xohladi.

Ⓒ U o‘zining kichik marvaridlarini sotmoqchi edi.

Ⓓ U chig‘anoq ichidagi marvaridni topishni xohladi.

Ruben marvarid dengizchilari eng yaxshi marvaridlarni topish uchun dengizga sho'ng'iydigan joylarga sayohat qildi – ba'zilari kumush rangda, boshqalari esa pushti rangda tovlanar edi.



U boy odamga aylandi. Boshqa savdogarlar u bilan uchrashish va marvaridlarini sotib olish uchun dunyoning istalgan nuqtasidan tashrif buyurar edi.

Garchi Ruben boy bo'lsa-da, baxtli emas edi. U bolaligida o'ynagan dengiz bo'yidagi shaharcha haqida borgan sari ko'proq o'ylar edi. U do'sti Josh haqida va u Rubenga o'zining birinchi marvaridini berishda naqadar saxiy bo'lgani haqida o'yladi.

8. Marvarid dengizchilari qanday qilib eng yaxshi marvaridlarni topar edilar?

Ⓐ Ular marvaridlar uchun dengizga sho‘ng‘ir edi.

Ⓑ Ular marvaridlarni savdogardan sotib olishar edi.

Ⓒ Ular marvaridlarni dengiz bo‘yidagi shaharlardan izlar edi.

Ⓓ Ular marvaridlar uchun uzoqqa sayohat qilar edi.

9. Ruben qanday qilib boy odamga aylandi?

1 ______________________________________________

10. Nima uchun Ruben Joshni saxiy deb o‘yladi?

Ⓐ chunki bolaligida Josh Ruben bilan o‘ynagan edi

Ⓑ chunki Josh Ruben ketganida xayrlashgan edi

Ⓒ chunki Josh Rubenga chiroyli marvarid bergan edi

Ⓓ chunki Josh hali ham dengiz bo‘yidagi shaharda yashayotgan edi

U yana tug‘ilib o‘sgan joyiga bordi.

“Ruben!”- degan ovoz keldi. “Seni ko‘rganimdan xursandman.” Bu dengiz bo‘yida o‘z bolalari bilan o‘ynayotgan Josh edi.

Ruben xuddi hech qachon olislarda bo‘lmagandek, Josh bilan soatlab suhbatlashib o‘tirdi.

“Menga sayohat ham, savdo-sotiq ishlari ham yetarli bo‘ldi”, - dedi Ruben. “Men haqiqatdan ham tug‘ilib o‘sgan joyimga qaytib, tinch-totuv yashashni xohlayman. O‘sha o‘tgan yillardagi saxiyliging evaziga senga biron narsa bermoqchiman. Nima istaysan? Yangi uymi? Yoki katta yaltiroq qayiq?”



11. Josh Rubenning qaytganidan mamnun. Josh buni ko‘rsatuvchi nima qildi?

(1) ______________________________

12. Nima uchun Ruben tug‘ilib o‘sgan joyiga qaytishni xohladi?

(A) U tinch-totuv yashashni xohladi.

(B) U ko‘proq marvaridlar topishni xohladi.

(C) U eski uyini ko‘rishni xohladi.

(D) U katta qayiq sotib olmoqchi edi.

13. Ruben Joshga ikkita narsa berishni taklif qildi. Ular nima edi?

(1) 1. ______________________________

(1) 2. ______________________________



“Rahmat”,-dedi Josh. “Ammo men bu yerdagi oddiy hayotimni yaxshi ko‘raman va menga yangi uy yoki qayiq kerak emas. Menimcha, biz qila oladigan eng yaxshi ish - bu pullaringni hamma bilan baham ko‘rishdir. Shunda hammamiz o‘z hayotimizdan zavqlanib yashashimiz mumkin”.

Joshning o‘zi uchun hech narsa xohlamasligidan Ruben hayratda qoldi. Ammo keyin katta boylik uni baxtli qila olmaganini esladi va jilmayib qo‘ydi.

“Biz bu ishni albatta qilamiz,” - dedi u.

14. Josh Rubenga pullarini nima qilish kerakligini aytdi?

Ⓐ yangi uy olishni

Ⓑ ko'plab marvaridlarni sotib olishni

Ⓒ hamma bilan baham ko'rishni

Ⓓ uni shaharga qaytarib olib ketishni

**To'liq hikoya haqida fikrlang.**

15. Hikoyaga ko'ra Josh yaxshi odam. Joshning yaxshi odam ekanligini ko'rsatadigan ikkita narsani yozing.

1. ______________________________

2. ______________________________

______________________________

# TIKUVCHI

*Muallif: Henning Mankel*

Sofiya Totioning kulbasiga kelganida, u allaqachon yotoqdan turib, kulbaning tashqarisida, tikuv mashinasi yonidagi taxta o'rindiqda o'tirgan edi. Sofiya xavotirga tushdi. Balki u fikrini o'zgartirgandir?



U yoniga kelganda, Totio unga bosh irg'ab, o'tirishi uchun o'rindiqdan joy ajratdi. Ularning ikkalasi ham hech narsa demadilar. Sofiya Totioga qaradi, u xayolga cho'mib o'tirgan edi. Tikuv mashinasi jigarrang, yog'och qopqoq bilan qoplangan edi. Kulbaning ichidan Fernandoning xurrak tovushi eshitilib turardi.

"Hayot har qanday paytda o'zgarib ketadi", - dedi Totio to'satdan. "Siz buni sodir bo'lishini bilsangiz ham, baribir sizni hayratda qoldiradi". U stol ustiga egilib, tikuv mashinasining yog'ochli qopqog'ini olib tashladi. So'ng qo'li bilan yaltiragan sirtini siladi.

"O'ttiz besh yildirkim men bu tikuv mashinasidan foydalanyapman," - dedi u. "Men shimlar, ayollar va erkaklar uchun ko'ylaklar, qalpoqlar tikishim uchun ignadan qancha kilometr ip o'tganini bilmayman.

Sofiya Totioning gʻamgin ohangdagi soʻzlarini tinglar edi. Keksayish va boshqa ishlay olmaslik qiyinligi haqida oʻylab qoldi.

Totio egilib, oʻrindiq ostida yotgan nimadirni oldi. Keyin uni Sofiyaga berdi. Bu qattiq, oq kartondan yasalgan peshtaxta edi. Peshtaxtada katta harflar bilan: “Tikuvchi doʻkoni: Sofiya Alfase” deb yozilgan edi.

Sofiya yuragi qattiqroq urayotganini sezdi. U quvonch bilan tabassum qila boshladi.  Bu haqiqat edi. U tikuv mashinasini ham doʻkonni ham ertaga oladi.




“Unutma, mamnun boʻlgan mijozlar qaytib keladi”- dedi Totio.

“Mamnun boʻlmagan mijozlar faqat bir   marta keladi va keyin hech qachon qaytmaydi. Sen ertaga kelganingda bu peshtaxta u yerda ilingan boʻladi. Ertalab mening peshtaxtam boʻlmaydi. Fernanda ham, men ham ketgan boʻlamiz. Doʻkon seniki, tikuv mashinasi ham. Barcha mijozlar ham.”

“Hali oʻrganishim kerak boʻlgan juda koʻp narsalar bor,”- dedi Sofiya.

“Bu menga ham tegishli”,- deb javob berdi Totio. “Sen bilishing kerak boʻlgan hamma narsani, hech qachon bilmaysan.”

Kulba ichidagi xurrak toʻxtadi va Fernanda koʻp oʻtmay tashqariga chiqdi.

“Menimcha, bu Fernandaning fikri ekanligini bilishing kerak,”- dedi Totio.  “Koʻzlarim endi yaxshi koʻrolmasligini sezganimda, tikuv mashinasini sotaman dedim. Lekin, Fernanda sizni tikuvchilik qilib, bizga onda-sonda pul yuborib turishingizni maʼqul koʻrdi”.

Fernanda oʻrindiqqa oʻtirdi. Sofiya u bilan Totio oʻrtasida tiqilib qoldi.

“Tikuv mashinasi tikish uchun,”- dedi Fernanda - “Uni sotmaslik kerak.”

“Men senga qanday minnatdorchilik bildirishni ham bilmayman,”- dedi muloyimlik bilan Sofia.

“Qilishing kerak bo‘lgan ish faqat-tikish”- dedi Fernanda.

Sofiya kun bo‘yi Totio va Fernandaning uyida qoldi. U ularning narsalarini yig‘ishga yordam berdi.

Ertasi kuni tongda ular jo‘nab ketishlari kerak edi. Ular bir paytlar yashagan joyi Muedaga sayohatga bormoqchi edilar.

Kun davomida, qishloqdan ko‘plab odamlar xayrlashish uchun kelishdi. Totio har doim Sofiyani aqlli tikuvchi ekanligi haqida gapirar edi. U ularga biror narsa tikish yoki yamash kerak bo‘lganda kelishlari kerakligini aytdi.

Kunning ikkinchi yarmida ular xayrlashishdi. Fernanda Sofiyaning yanog‘iga sekingina urib qo‘ydi. Totio o‘zining ajin bosgan lekin zabardast qo‘llari bilan uning qo‘llarini siqdi. Totio Sofiya bilan xayrlashganda, uning qo‘lini uzoq vaqt ushlab turdi.

Sofiya, Totio va Fernandani juda sog‘inishini bilib uyiga qaytdi. Lekin, u har safar jigarrang yog‘och qopqoq ostidagi tikuv mashinasidan foydalanganda ular haqida o‘ylashini bilar edi.



## “Tikuvchi” matni yuzasidan savollar

1. Ushbu voqea qayerda sodir bo‘ldi?

   Ⓐ Sofiyaning uyida

   Ⓑ Mueda shaharchasida

   Ⓒ tikuvchilik kulbasi tashqarisida

   Ⓓ tikuvchilik do‘konida

2. Hikoyaning boshida Totio nima uchun “hayolga cho‘mib” o‘tirgan edi?

   Ⓐ U hayotidagi o‘zgarishlar haqida o‘ylar edi.

   Ⓑ U qishloqdan ketayotganidan xursand edi.

   Ⓒ U boshqa odamlar uchun tikishdan charchagan edi.

   Ⓓ U tikuv mashinasini sotish haqida o‘ylar edi.

3. Nima uchun Sofiya Totioning fikri o‘zgarib qolishidan xavotirlandi?

   Ⓐ U yangi tikuvchi kelishi haqida o‘ylab asabiylashdi.

   Ⓑ U kulbada yashashni xohlamadi.

   Ⓒ U Totioning qolishini xohladi.

   Ⓓ U Totioning ishini davom ettirishni intiqlik bilan kutardi.

4. Totio ko‘chib ketganidan so‘ng uning hayotida qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?

   (A) U yaqin oradagi kulbada yashaydi.

   (B) U Mueda shaharchasida yangi ish boshlaydi.

   (C) U ilgari yashamagan joyda yashaydi.

   (D) U boshqa tikuvchilik qilmaydi.

5. Totio Sofiyaning yangi tikuvchi ekanligini odamlarga bildirish uchun nima qilmoqchi bo‘ldi?

   (A) Unga tikuv mashinasini bermoqchi bo‘ldi.

   (B) Kulba tashqarisiga peshtaxta ilmoqchi bo‘ldi.

   (C) Odamlarga unga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lishlarini aytmoqchi bo‘ldi.

   (D) Muedadagi hammaga aytmoqchi bo‘ldi.

6. Totio nima uchun tikuv mashinasini sotish haqida o‘yladi?

   (A) U tikuvchilikni yoqtirmay qolgan edi.

   (B) Fernanda buni yaxshi fikr deb o‘ylagan edi.

   (C) U yaxshi ko‘ra olmay qolgan edi.

   (D) Uning mijozlariga Sofiya ko‘proq yoqib qolgan edi.

7. Fernanda Sofiyaga qanday yordam berdi?

Ⓐ U Totio va Sofiya bilan birga o‘rindiqqa o‘tirdi.

Ⓑ U Totioga Sofiya yangi tikuvchi bo‘lishini aytdi.

Ⓒ U Sofiaga narsalarini yig‘ishga yordam berdi.

Ⓓ U kulbada uxlab, Sofiya va Totioga gaplashish uchun imkon yaratdi.

8. Nima uchun Totio Sofiyaga mijozlarga g‘amxo‘rlik qilishi kerakligini aytdi?

______________________________________________

9. Totio Sofiya bilan xayrlashganda, uning qo‘lini uzoq vaqt ushlab turdi. Bu sizga Totioning hissiyotlari haqida nimani namoyon qilayapti?

______________________________________________

10. Totioning Sofiya uchun qilgan eng foydali ishi nima edi? Nima uchun bu eng foydali ekanligini tushuntiring.

______________________________________________

______________________________________________

11. Hikoyada Sofiya turli xil tuyg‘ularni boshidan kechiradi. Uning his qilgan **uchta** turli xil tuyg‘ularini yozing va nima uchun har bir tuyg‘uni boshdan kechirganini tushuntiring.

______________________________________________

______________________________________________

______________________________________________

12. Sofiyaning yangi tikuvchi bo‘lgani Totioning hayoti yaxshilanishida qanday ahamiyatga ega?

Ⓐ U boshqa ishlashi shart emas edi.

Ⓑ U ko‘proq mijoz topa olar edi.

Ⓒ U ko‘proq ko‘ylaklar tika olar edi.

Ⓓ U tikuvchilik kulbasida yashashga majbur bo‘lmas edi.

13. “Hayot o‘zgaradi va davom etadi” sarlavhasi bu hikoya uchun bosha bir yaxshi sarlavha bo‘la oladimi?

______________________________________________

# Chorining qobiliyati



Yoz fasli endigina boshlangan edi. Chori o'zining uyi oldidagi bog'da ishlayotgan edi. U sakrab ketayotgan do'sti Davronni ko'rib qoldi. U to'xtadi va qo'l silkidi.

"Yozda nima qilmoqchisan?"- deb so'radi Chori.

"Bizning futbol jamoamiz katta turnirga tayyorlanmoqda. O'ylashimcha, bu yil g'olib bo'lamiz", - deb javob berdi Davron.

"Voy...bu juda zo'rku".

Davron yugurib ketdi, Chori esa urug'larni ekishda davom etdi. "Futbol jamoasida bo'lganimda edi",- deb o'yladi u. Men tayyorgarlikni boshlashim kerak...

1. Hikoyaning boshida Chori qayerda edi?

(A) o'zining bog'ida

(B) maktabda

(C) ko'chada

(D) o'zining uyida

2. Kim futbol turniriga tayyorlanayotgan edi?

✎1 ______________________________________________



Chori keyingi haftada maydonga bordi. U futbol jamoasidagi bolalarni tanir edi. Chori ularga qo‘shilib o‘ynadi, lekin natija yaxshi bo‘lmadi. Uning oyoqlari chalishib ketdi va raqib jamoasi uchun gol urib qo‘ydi. U o‘yin so‘ngida futbolga qobiliyatsizligini tushunib yetdi.

Chori oyog‘ini sudrab uyiga qaytdi va yana o‘zining bog‘ida ishlay boshladi.

U aynan o‘sha vaqtda ko‘chada ketayotgan Jamila ko‘rib qoldi. “Salom, Jamila!” - dedi u. “Yoz fasli uchun sening qanday rejalaring bor?”

“Men ko‘p qo‘shiq aytayapman. Bizning xor jamoamiz katta konsertga tayyorlanayapti”,- dedi Jamila.

Chori xo‘rsindi. U buni qiziqarli deb o‘yladi. Qanday qilib kuylashni bilganimda edi…To‘satdan chopiq ishlari bilan shug‘ullanib yozni o‘tkazish ahmoqona ishdek tuyuldi.

3. Chori futbol oʻyini paytida bajargan **ikkita** ishni yozing.

1. ______________________________

2. ______________________________

4. Hikoyada aytilishicha, “Chori oyogʻini sudrab uyiga qaytdi”. Bu oʻzini qanday his qilgani haqida nimani anglatmoqda?

Ⓐ U raqsga tushishni xohladi.

Ⓑ U xafa edi.

Ⓒ U asabiy edi.

Ⓓ U bogʻbonchilik qilishni xohlagan edi.

5. Yoz fasli uchun Jamilaning qanday rejalari bor edi?

______________________________

6. Jamila bilan suhbatlashgandan keyin Chorining bogʻbonchilik qilishga nisbatan fikri qanday boʻldi?

______________________________



Bir necha haftadan so‘ng Chori yangi qo‘shiqchi guruh tashkil etilayotganligi haqidagi e’lonni ko‘rdi. U urinib ko‘rmoqchi bo‘ldi. Chori qo‘shiq kuylar ekan, uning ovozi titradi va chiyillab chiqdi. Hay’at a’zolaridan birining yuzi burishdi. Bundan Chori tanlovdan o‘ta olmaganini tushundi.

Chori uyiga qaytib, o‘tlarni yuldi. Barcha do‘stlarimning o‘ziga yarasha qobiliyati bor, deb o‘yladi. Men ham biror sohada zo‘r bo‘lsam edi.

Yozning qolgan qismida ham Chori o‘z qobiliyatini aniqlashga urindi. Har bir yangi mashg‘ulotidan so‘ng Chori boshini egganicha uyiga qaytar va vaqtini o‘zining bog‘ida o‘tkazar edi.

7. Chori e’londa nimani ko‘rdi?

(A) futbol o‘yinini

(B) bog‘bonchilik guruhini

(C) yozgi konsertni

(D) qo‘shiqchi guruhni

8. Nima uchun hay’at a’zosining yuzi burishdi?

1 ____________________________________________

9. Chori yangi mashg‘ulotga urinib ko‘rganidan so‘ng nima qildi?

1 ____________________________________________



Yoz faslining oxiriga kelib, Chori do‘stlari Jamila va Davronni yana ko‘rib qoldi. “Katta futbol turniri qanday o‘tdi?” - deb so‘radi u.

“Biz yutdik”, - deb javob berdi Davron.

“Konsert qanday o‘tdi?”- deb Chori Jamiladan so‘radi.

“Ertaga bo‘ladi, biroq, bizning xor jamoamiz juda ham qattiq tayyorlandi va men yakkaxon bo‘lib kuylayapman”,-dedi Jamila.

“Tabriklayman”,- dedi Chori ularga. “Men ham biror nima bilan faxrlansam edi”.

“Hazillashayapsanmi?”- deb so‘radi Jamila. “Sening bog‘ingdagi sabzavotlar juda ham katta! Men har doim biror narsa o‘stirishga harakat qilaman, lekin ular so‘lib, qurib qoladi”.

“Rostdanmi?, men hech qachon bog‘bonchilik shunchalar muhim deb o‘ylamagan edim”, Chori jilmaydi. “Ertaga ikkalangiz Davronning futbolda g‘alaba qozonganini nishonlash uchun kelmaysizmi? Onam mening bog‘imdagi narsalardan kechki ovqat tayyorlab beradi, undan keyin Jamilaning konsertini ko‘rishga borishimiz mumkin.”

10. Davronning futbol jamoasini yaxshi deb ayta olishingiz uchun qanday sabab bor?

1 ______________________________

11. Kimning ekkan sabzavotlari so'lib, qurib qolar edi?

(A) Chorining

(B) Davronning

(C) Jamilaning

(D) Chorining onasining

12. Chori nimada eng zo'r edi?

1 ______________________________

13. Jamila hikoyaning so'ngida Choriga nimani anglashiga yordam berdi?

(A) U allaqachon nimadadir zo'r ekanligini

(B) U futbolda zo'r ekanini

(C) Bog'bonchilik qiyin ish ekanini

(D) Uning do'stlari undanda qobiliyatli ekanini

14. Nima uchun Chori hikoya so'ngida do'stlarini uyiga taklif qildi?

Ⓐ yoz faslining tugashini nishonlash uchun

Ⓑ hammalarining qobiliyatlarini nishonlash uchun

Ⓒ futbol o'ynash uchun

Ⓓ ularga bog'bonchilikni o'rgatish uchun

15. Yoz davomida Chori nimani xohladi?

Ⓐ o'zining bog'ida ko'proq vaqt ishlashni

Ⓑ har xil do'stlar bilan o'ynashni

Ⓒ yangi joyni borib ko'rishni

Ⓓ u nimada qobiliyatli ekanligini bilishni

# Xaloskor delfin



*Muallif: Vayn Grover*

Bugun Asom bilan men xazina izlab, dengiz tubiga sho‘ng‘imaslikka qaror qilgan edik. Quyosh bulutlar ortidan ko‘rinib tursa-da, aftidan, ob-havoning avzoyi buzuq edi. Asom sohil bo‘yidagi ob-havoni hammadan ko‘ra yaxshiroq bilar edi, u qayiqda ochiq dengizga chiqib ketar ekan, ob-havoning o‘zgargani unga yoqmadi.

Men do‘stim delfinni qidirib, chor atrofdagi suvga ko‘z tashladim. Delfin yosh bo‘lganida men uning dumidagi katta qarmoqni olib tashlab, uning hayotini saqlab qolganman. Men unga Bubu deb ism

qo'yganman va u mening suv ostidagi doimiy hamrohim.

Men cho'kib ketgan eski ispan kemasi qoldiqlariga duch kelganimda, do'stim Bubu mening yonimda suzib borar edi. Kema qoldiqlari qirg'oqdan taxminan besh kilometr uzoqlikda va yigirma bir metr chuqurlikda edi. Men birinchi tilla tangani topganimda, Bubu mening har bir xatti-harakatimni kuzatib turardi. Xursandligimdan "Voy-vo" deb yubordim! Delfin Bubu ham o'ziga xos qichqiriq tovushi bilan qo'shimcha qildi. Biz  atigi bir nechta tilla tanga topgan bo'lsak-da, ammo bu sarguzasht edi!





Asom qayiqning ko'tarilib, tushayotganini ko'rib, "Kuchli yomg'ir bilan yaxshigina shamol yaqinlashmoqda", - dedi. Mening delfinim bunday bo'ronli kunda keladimi yoki yo'qmi degan hayolga bordim, lekin to'lqinli va vahimali dengizda suzgich qanotlar ko'rinmas edi. Men bezovtalikning ilk belgilarini his qila boshladim.

"Mana u. Langarni tashla", baqirdi Asom. Men g'avvoslar kiyimini kiydim, qirq besh daqiqaga yetadigan havosi bor bo'lgan kislorod ballonini olib, o'zimni dengizga tashladim. Dengizning tubi ko'ringunga qadar suv ostiga tushib ketaverdim. Oradan taxminan yarim soat o'tdi va ko'rishim mumkin bo'lgan narsalar faqat qoya-toshlar edi. Bubu meni qiziqish bilan kuzatib turishini sog'indim!

So‘ngra, manometr menga suv yuzasiga ko‘tarilishim kerakligini ko‘rsatgan bir paytda, yaltiragan temir uyumini ko‘rib qoldim. Bu tilla zanjirning bir nechta halqalari edi. Men zanjirni ohista tortgan edim, oltmish santimetr keladigan zanjir qum orasidan sekin chiqib keldi. Keyin u nimagadir mahkam ilinib qoldi.

Mening  kislorod ballonimdagi havo tugab borar edi. Men suv yuzasiga hoziroq ko‘tarilishim kerak! Men zanjirni tortib olish uchun yana bir marta urinib ko‘rdim, lekin u mahkam ilinib qolgan edi.

Men suv yuzasiga ko‘tarilganimda, Asom qo‘llarini telbalarcha silkitar edi. Unga nimani topganimni aytmoqchi bo‘lib turgan edim, Asom:- “Langarni tortib olishimiz kerak. Shiddatli bo‘ron bo‘lishi haqida ogohlantirishdi. Harakat qilaylik!”- dedi.

“To‘xta, Asom. Men tilla topib oldim! Naqd ikki kilo keladigan, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan tilla zanjir bor ekan, lekin u bir narsaga ilinib qolibdi. Men ortga qaytib, uni olib chiqmoqchiman. Bu-ulkan boylik!”.

“Hoy”,- dedi Asom. O‘shqirgan to‘lqinlar besh metrga ko‘tarilar ekan. “Tillami yoki tilla emasmi, langarni ko‘tarishimiz va ketishimiz kerak”. To‘lqinlar uzra chaqmoq va momaqaldiroq gumburladi, vaziyat ancha qo‘rqinchli tus oldi.

“Asom, sen haqsan, ammo xazinamizni nima qilamiz?”- deya e’tiroz bildirdim. “Men yangi kislorod ballonini kiyaman va zanjirni bo‘shatish uchun ortga qaytaman”.

Qayiq langar arqonlariga tiralib qolgandi. Shamol uvillar, yomg‘ir esa bizning yuzimizga urilar edi. “Yaxshi,”- dedi Asom. “Arqonlar qayiqni yana besh daqiqa ushlab tura oladi, ammo undan ko‘p emas.”

Men suvga sho‘ng‘ib, to‘g‘ri suv tubiga tushdim. Mana u. Zanjir dengiz tubida kulcha bo‘lib, o‘ralib olgan tilla ilonga o‘xshar edi. Men yanada chuqurroqqa sho‘ng‘idim. Nazarimda, dengizning tubi ko‘rinmas edi. Bu vaqt bilan poyga o‘ynash edi. Men zanjirni

bo‘shatib, ortga qaytishim kerak edi. Men qo‘l soatimga qaradim. Oradan to‘rt daqiqa o‘tdi. Ulkan to‘lqinlar qayiqni allaqachon buzib yuborgan bo‘lsa kerak.

So‘ngra mening barmoqlarim boshqa bir narsaga, zanjirning oxirida yoqut bilan bezalgan medalyonga tegib ketdi. Butun zanjir taxminan bir metrdan oshiqroq uzunlikda bo‘lib, uning har beshinchi halqasi olmoslar bilan bezatilgan va ishonib bo‘lmas darajada chiroyli edi. Uni chap qo‘limga o‘rab olar ekanman, yuragim hayajondan hapqirib ketdi. Ehtimol, yanada ko‘proq xazina bo‘lishi mumkin edi, ammo vaqtim tugagan edi. Men suv yuzasiga ko‘tarilishim zarur edi.

Suv yuzasiga ko‘tarilgach, to‘lqinlar tanamni orqaga va oldinga uloqtirardi. Qayiq esa allaqachon ketib qolgan edi! Men to‘fon ko‘tarilgan dengizda adashib, yolg‘iz qolgan edim. Bulutlar shunchalik qora edi-ki, atrof tun kabi qorong‘u edi. Sovuq shamol etimni junjiktirdi. Yomg‘ir shunchalik shiddat bilan qalqib yog‘gani tufayli dengiz qirg‘og‘i qayerda ekanini aytolmas edim.

Bir necha soat davomida suv yuzida turishga, o‘tib ketayotgan har bir to‘lqin yuzimga urilganda, imkon qadar nafas olishga harakat qilar edim.



Yolg‘izlik, charchoq va sovuq, bu mening yorug‘ dunyodagi eng so‘nggi kunim bo‘lsa kerak, deb o‘yladim. Nima uchun “tilla langar” meni dengiz tubiga cho‘ktiradi?!

Men shunchalik charchagan edim-ki, zo‘rg‘a qimirlay olardim. Men iztiroblar qurshovida qolgan edim. Chap qo‘limga o‘rab olgan

tilla zanjirni o‘ng qo‘lim bilan ushlab ko‘rdim. Zanjirni bo‘shatdim va barmoqlarimni keng ochdim. Dengiz tubida qariyb 300 yildan beri yotgan tilla zanjirni pastga, sekingina tushirib yubordim.

“Menga yordam bering!”-deb qorong‘uda qichqirdim. “Biror kimsa bo‘lsa, yordam bering!”- deya hech kim eshitmasligini bilsam ham baqirardim.

Bum! Bum! Nimadir baland ovozda LOP etib, yonimdagi suvni yorib chiqdi. So‘ngra men qachonlardir eshitgan eng yoqimli tovushni eshitdim. Bu delfinning qichqirig‘i edi. “Bu senmisan, Bubu?”-deb shivirladim. Men shunchalik charchagan edim-ki, qo‘llarimni ham zo‘rg‘a qimirlata olar edim, ammo delfinning orqa suzgichidan ikkala qo‘lim bilan tutib olishni uddaldim. Bubu chirqillagan ovoz chiqardi va sekingina suza boshladi, meni suvda bir-necha soat yetaklab bordi.

“Bunga kim ham ishonardi?” degan fikrda edim. Bu voqea sodir bo‘layotganiga o‘zim ham unchalik ishonmas edim. To‘lqinlar shiddati pasaygunga qadar biz qirg‘oqqa yaqinlashib kelaverdik. Bubu meni sohilga olib chiqdi va oyoqlarim yerga tegdi. Men sog‘-omon edim.

Bubu menga yaqin joyda suzib  yurardi va o‘zining delfincha sho‘x qo‘shig‘ini aytar edi. Men  tilla zanjirni deb xavf-xatarga qo‘ygan hayotim uchun undan qarzdor edim. U o‘girilib, ochiq dengiz tomon suzib ketdi va ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. “Rahmat, Bubu. Sen mening hayotimni saqlab qolding,” - deb uning ortidan baqirdim.



## “Xaloskor delfin” matni yuzasidan savollar

1. Birinchi paragrafning asosiy maqsadi nima?

   Ⓐ Asomning qayiqni boshqara olishini ko‘rsatish

   Ⓑ kutilmaganda xavf-xatar yuzaga kelishi mumkinligini ko‘rsatish

   Ⓒ ob-havo yaxshilanib borayotganini ko‘rsatish

   Ⓓ g‘avvosning xazinadan xabardor ekanligini ko‘rsatish

2. Hikoyani so‘zlab berayotgan g‘avvos va delfin Bubu o‘rtasidagi do‘stlik nimadan boshlangan?

   Ⓐ G‘avvos Bubuning dumidan qarmoqni olib tashlagan edi.

   Ⓑ Bubu g‘avvosga xazinani topishga yordam berdi.

   Ⓒ G‘avvos Bubuga har kuni yegulik berar edi.

   Ⓓ Bubu g‘avvosni suv ostidagi to‘rdan xalos etdi.

3. Hikoyaning yomg‘ir buluti tasviri tushirilgan qismini toping: 

   G‘avvosni “bezovtalikning ilk belgilarini his qila boshlagani”ga nima sabab bo‘ldi?

   Ⓐ Qayiq qirg‘oqdan besh kilometr uzoqlikda edi.

   Ⓑ Asom qayiqqa qarab turar edi.

   Ⓒ Bubu ko‘rinmas edi.

   Ⓓ Kislorod ballonida havo qolmagan edi.

4. G‘avvos ballon ichidagi kislorod tugab borayotgan bir paytda nimani ko‘rib qoldi?

Ⓐ cho‘kkan kemani

Ⓑ tilla tangani

Ⓒ zanglagan zambarakni

Ⓓ tilla zanjirni

5. Hikoyaning langar tasviri tushirilgan qismini toping: 
Nima uchun Asom “langarni ko‘tarish va ketish”ni xohladi?

Ⓐ Dahshatli bo‘ron yaqinlashib kelayotgan edi.

Ⓑ U Bubuni topishni xohlar edi.

Ⓒ Tilla zanjir juda og‘ir edi.

Ⓓ Havo faqat 45 daqiqaga yetishi mumkin edi.

6. Sizning fikringizcha, g‘avvos ikkinchi marta sho‘ng‘ishi kerak edimi?
Iltimos, tanlovingizni belgilang.

______ Ha

______ Yo‘q

Siz nima uchun bunday fikrda ekaningizni tushuntirish uchun hikoyadan **ikkita** sabab keltiring.

1. ____________________________________________

____________________________________________

2. ____________________________________________

____________________________________________

7. Hikoyada g‘avvos ikkinchi marta suv yuzasiga ko‘tarilganda, qayiq ketib qolishi mumkinligi haqida ishoralar berilgan. Hikoyadan buni bilib olishingiz mumkin bo‘lgan **ikki** usulini keltiring.

1. ______________________________

______________________________

2. ______________________________

______________________________

8. G‘avvos zanjirni “tilla langar” deb ataganda nimani nazarda tutgan edi?

- (A) U qayiqni bir joyda ushlab turar edi.
- (B) U dengiz tubida edi.
- (C) U g‘avvosni suv tubiga tortib ketayotgan edi.
- (D) U g‘avvosni boy qilib yuborar edi.

9. Hikoya so‘ngida g‘avvos qanday qilib sohilga chiqib oldi?

- (A) U qirg‘oqqa o‘zi suzib bordi.
- (B) Bubu uni yetaklab bordi.
- (C) Asom uni qayiqqa chiqarib oldi.
- (D) To‘lqinlar uni qirg‘oqqa olib chiqdi.

10. Nima uchun Asom obrazi ushbu hikoyada muhim ahamiyatga ega?

- (A) U Bubu bilan do‘st edi.
- (B) U xazina qayerda ekanligini bilar edi
- (C) U suvga sho‘ng‘ishni yoqtirar edi.
- (D) U xavfdan ogoh etdi.

11. G‘avvos ushbu hikoyadan qanday **ikkita** muhim saboq chiqarishi mumkin?

Javobingizni izohlash uchun hikoyadagi sodir bo‘lgan voqealardan foydalaning.

3

_______________________________________________

_______________________________________________

_______________________________________________

_______________________________________________

# Afrika karkidonlari va okspeker qushlari



**Karkidonlar va okspekerlar bir-biriga yordam beradi**

Karkidonlar va okspekerlar bir-biridan juda farq qiladigan jonzotlardir. Karkidon - juda katta, quruqlikdagi hayvon. Faqatgina fil undan kattaroqdir. Okspeker qushi esa juda kichkina.

Karkidonlar va okspekerlar birgalikda yashab, bir-birlariga yordam berishadi. Okspekerlar karkidonlarning ustida yashaydilar.

1. Siz okspekerlarni qayerdan topishingiz mumkin?

✎1 ______________________________________________

2. Qizil aylanaga olingan katta rasm nimani tushunishingizga yordam beradi?

Ⓐ okspekerlar qanday uchishini

Ⓑ okspekerlarning tovushini qanday ekanligini

Ⓒ okspekerning inini

Ⓓ okspekerlar ko‘rinishi qanday ekanligini

3. Nima uchun muallif sizga fil haqida ham hikoya qiladi?

Ⓐ fillarning karkidonlar yonida yashashlarini ko‘rsatish uchun

Ⓑ karkidon juda katta ekanligini ko‘rsatish uchun

Ⓒ fillarning ustida okspekerlar borligini ko‘rsatish uchun

Ⓓ karkidon va fillarning bir xil oziqlanishlarini ko‘rsatish uchun

*Quyidagi jadvalda karkidon va okspekerlar haqida ba'zi ma'lumotlar keltirilgan*

| KARKIDON | OKSPEKER |
|---|---|
| Rangi: kulrang | Rangi: jigarrang |
| Og'irligi: 3600 kilogramm | Og'irligi: 0,5 kilogramm |
| Bo'yi: 1,8 metr | Bo'yi: 20 santimetr |
| Oziqlanishi: o't va barglar | Oziqlanishi: hasharotlar va kanalar |



## Karkidonlar

Karkidonlar o'zlarining katta shoxlari bilan mashhur. Aslida, karkidon nomi "shoxli burun" degan ma'noni anglatadi. Ba'zi odamlar ularning shoxlarini dori sifatida qimmatli deb hisoblashadi, ammo bu noto'g'ri.

Karkidonlar hamon ovchilar sababli katta xavf ostida. Garchi karkidonlarning o'ldirilishi qonun bilan himoyalangan bo'lsa ham, ularni hamon shoxlari uchun ovlaydilar.

4. Jadvalga qarang.
Okspekerning vazni qancha?

1 ____________________

5. Karkidonning bo‘yi qancha?

1 ____________________

6. Nima uchun ovchilar karkidonlarni o‘ldiradilar?

(A) Karkidonlar juda xavfli.

(B) Ovchilar karkidon go‘shtini yeyishni xohlaydilar.

(C) Ovchilar karkidonning shoxlarini xohlaydilar.

(D) Karkidonlar juda ko‘p.

Karkidonlar o‘t, daraxt barglari va butalar bilan oziqlanishni yaxshi ko‘radilar. Ular topilgan har qanday o‘simliklar bilan oziqlanishi mumkin.



Kana - bu hayvonlarning qonini so‘radigan mayda jonzot.

Kanalar o‘tib ketayotgan odamlar va hayvonlarga sakrashlari uchun daraxtlar va butalar orasida yashirinishni yaxshi ko‘radilar. Karkidonlar ovqatlanayotganda, daraxtlar va butalarda yashovchi kanalar karkidonlarga sakrab o‘tib oladi, keyin ularning terisida yashaydi.

7. Karkidonlar nima bilan oziqlanadi?

(1) ____________________________________________

8. Nima uchun daraxtlar va butalar orasi kanalarning yashirinishlari uchun yaxshi joy?

(A) chunki kana o‘t va barglarni yeydi

(B) chunki karkidonlar u yerga oziqlanish uchun keladi

(C) chunki qushlar kanani yeydi

(D) chunki burgalar ularning terisini himoya qiladi

Kana karkidonni tishlaydi, karkidonning qonini so'radi va karkidonda qichishish seziladi. Karkidonlarning terisi juda qalin va qattiq ko'rinsada, ular juda sezuvchan. Karkidonlar kanalardan qutulish uchun ko'p vaqtlarini daraxt va toshlarga ishqalab o'tkazadilar.

***Kanalar*** *juda kichkina, ammo yashashi uchun unga qon kerak. Kana hayvon terisiga yopishib olib, qon so'radi. Yer sayyorasida yuzlab turdagi kanalar mavjud va deyarli hamma joyda ularni topish mumkin.*



9. Nima uchun kana karkidon uchun muammo ekanligini izohlang.

(2)

______________________________________________

______________________________________________

______________________________________________

10. Kana yashashi uchun unga nima kerak?

Ⓐ daraxtlar

Ⓑ karkidonlar

Ⓒ butalar

Ⓓ qon

11. Karkidonlar kanalardan qutulish uchun nima qilishadi?

(1)

______________________________________________

## Okspekerlar

Okspeker - bu kichkina jigarrang, keng tumshuqli, qattiq dumli va o‘tkir tirnoqli qush. Okspekerlar karkidonning ustida o‘tirib, karkidon terisida yashovchi kanalar bilan oziqlanadi.

Okspekerlar hasharotlar bilan oziqlanadi, ammo ularning eng sevimli ozuqasi qon bo‘lib, shuning uchun ular karkidonning qoni bilan to‘ygan kanalarni afzal ko‘radilar. Okspeker bir kunda qon bilan semirgan kananing deyarli 100 tasini yeyishi mumkin.



12. Okspekerning quyidagi a’zolari qanday tuzilishga ega?

Uning dumi ________________________________________

Uning tirnoqlari ____________________________________

13. Nima uchun okspekerlar ayniqsa kana bilan oziqlanishni yaxshi ko‘radilar?

(A) chunki kanalar qon so‘rib olgan bo‘ladi

(B) chunki har bir karkidonda ko‘plab kanalar bor

(C) chunki kanalar barglarni yegan bo‘ladi

(D) chunki kana kichkina va yeyish uchun oson

14. Okspeker qushi bir kunda qon bilan semirgan nechta kanani iste’mol qilishi mumkin?

__________________________________________________



## Bir - biriga suyanish

Karkidonlar va okspekerlar bir - birlariga yordam berishadi. Okspekerlar oʻzlarining ozuqalarini topadilar, karkidonlar esa kanadan tozalanadilar.

Shuningdek, okspeker karkidonni dushmanlardan himoyalanishiga yordam beradilar. Karkidonlar uzoqni koʻra olmaydilar va dushmanni aniqlashda qiyin damlar boʻladi. Oʻtkir koʻzli okspekerlar ularni qoʻriqlaydi va xirillagan baland ovoz va shovqin qilib karkidonlarni xavfdan ogoh etadilar.

15. Qanday qilib karkidon xavfni sezmaganda okspeker buni sezadi?

- (A) U yaxshiroq eshita oladi.
- (B) U yaxshiroq ko'ra oladi.
- (C) U ucha oladi.
- (D) U tezroq harakatlana oladi.

16. Okspeker karkidonni xavfdan ogoh etish uchun nima qiladi?

1 ______________________________________________

**To‘liq maqola haqida fikrlang.**

17. Agar karkidonlar bo‘lmaganda okspekerlarning hayoti qanday bo‘lar edi?

1 ______________________________

Agar okspekerlar bo‘lmaganda karkidonlarning hayoti qanday bo‘lar edi?

1 ______________________________

# KUCHUK TARBIYALASH

*Muallif: Jenis Marriot*



**Ko'plab mamlakatlarda ba'zi ko'zi ojiz odamlarning yo'l ko'rsatuvchi kuchuklari bo'lib, kuchuklari ularga yo'llarini topish uchun yordam beradi. Yangi Zelandiyada "kuchuk tarbiyalovchi"lar yo'l ko'rsatuvchi kuchuklarga kichkinaligidan g'amxo'rlik qilib, ularni tarbiyalab shunga o'rgatadi.**

Tim va Vitney Trout kuchuk tarbiyalovchilaridir. Ular labrador kuchugi Goldiga g'amxo'rlik qiladilar. Goldi bir yoshga to'lganida u ko'zi ojiz kishiga yo'l ko'rsatuvchi kuchuk bo'ladi. Ungacha Vitney va Tim hamda uning ota-onasi uning tinch va sog'lom turmush tarziga ishonch hosil qilishadi. Bu katta mas'uliyat.

Tim hamda Vitney ikkalasi Yangi Zelandiyadagi eng tajribali kuchuk tarbiyalovchilardir. Goldi ularning to'rtinchi kuchugi. Ularda bundan oldin tarbiyalangan uchta kuchuk: Alda, Lasey va Tulsining rasmlari bor.

Goldi hozir to'qqiz oylik. U yetti haftalik paytida kelgan edi. 7 haftalik bo'lishiga qaramay, u kichkina, chiroyli va yumshoq o'yinchoqdek edi.

Vitney u bilan darhol mashg'ulotini boshladi.

Vitney va Tim Goldiga uchta buyruqni tushunish va ularga bo‘ysunishni o‘rgatdilar.



**“Band, band.”** Buning ma’nosi “hojatga bor”,- bu juda muhim buyruq. Chunki yo‘l ko‘rsatuvchi kuchuklar piyodalar yurish yo‘laklari yoki jamoat joylarini iflos qilishi mumkin emas.



**“O‘tir.”** Yo‘l ko‘rsatuvchi kuchuklar buni boshidanoq o‘rganishlari va aytilgan paytda o‘tirishlari kerak.



**“Hushtak.”** Vitney va Tim Goldiga ovqatlanish odobini ham o‘rgatishlari kerak. Dastlab Tim Goldiga o‘tirishini buyuradi. So‘ng idishda yoniga ovqat qo‘yadi. Goldi Tim va Vitney ovqatlanishga ruxsat berib hushtakni chalmagunlaricha kutib o‘tirishi kerak.

Ushbu uchta buyruq bilan bir qatorda Goldi o‘zining mashinadagi o‘rniga joylashishni o‘rganishi kerak. Odamlar bilan salomlashayotganda sakrash mumkin emasligini ham o‘rganishi kerak edi.

Bu uchun Tim va Vitney ham uni yaxshi shug‘ullantirishlari kerak.

Ular Goldining o‘z ovqatini qo‘lda bera olmas edilar. Agar Goldi biror tayoq olib kelsa, ular uni olib kelishi uchun otib yubormasliklari kerak. Ular u bilan koptok o‘ynashlari mumkin emas. Bu juda qiyin ammo bu uni to‘laqonli sodiq bo‘lishga o‘rgatishini ular bilishar edi.

Ular shundoq ham Goldi bilan mazmunli vaqt o‘tkazishdi. U ertalablari Vitney bilan Timni uyg‘otar edi. Unga paypoq ichidagi koptokni olish o‘yinini o‘ynash uchun ruxsat berishgan edi.

Vitney, Tim va ularning oilasi Goldini odatda kuchuklar ruxsat etilmagan ko‘plab joylarga, jumladan supermarketlar, samolyot,

maktabga olib borar edilar. Goldi ko‘chaga chiqqanda uni o‘ziga xos qizil yopinchig‘ini kiyib chiqar edi.

Goldining sevimli joyi bu go‘sht do‘koni edi. Lekin u buyruqlarga rioya qilishni va qo‘ldan hech narsa yemaslikni yodda tutishi kerak edi. U shunchaki atrofga uzoq tikilib turardi.



U shuningdek, Tim bilan futbol va tennisga, Vitney bilan esa gimnastika va baletga borar edi.

Boshqa kuchuklar singari Goldi ham sho‘xlik qilar edi. U ko‘chadan badbo‘y hidli paypoqlarni olib kelib berkitib qo‘yishni yaxshi ko‘rar edi. Agar hech kim qaramay turgan bo‘lsa idish yuvish mashinasidagi likopchalarni yalab qo‘yishga urinar edi. Bir kuni u oshxona stoliga chiqishni uddaladi va usti yopiq, endigina pishirilgan kekslarni paqqos tushirdi.

Kunlar, haftalar, oylar tezlik bilan o‘tib borar edi. Tim va Vitney Goldi bir yoshga to‘lsa yo‘l ko‘rsatuvchi kuchuklar maktabiga ketishi va balki hech qachon uni qaytib ko‘rmasliklari mumkinligini bilar edilar. Qachonki u mashg‘ulotini tugatib, yo‘l ko‘rsatuvchi kuchukka aylanganda, uning ham surati Alda, Lasey, Tulsi suratlari qatoridan o‘rin olar edi.

Tim va Vitney Goldining ketayotganidan xafa edilar, lekin ular unga sodiq do‘st bo‘lishni o‘rgatishgani yordam berishini bilar edilar. Faqatgina kuchukchaligida baxtli damlarni boshdan kechirgan kuchuklar yo‘l ko‘rsatuvchi kuchuk bo‘lishda kurasha oladi. Keyin ular ko‘zi ojiz insonlarga kerakli, suyukli bo‘lish uchun loyiq bo‘lib ulg‘ayadilar.



## “Kuchuk tarbiyalash” matni yuzasidan savollar

1. Goldi qanday kuchuk boʻlishga tayyorlanayotgan edi?

2. Tim va Vitney bilan yashashga kelganida Goldi necha yosh edi?

   (A) Yetti haftalik

   (B) Toʻqqiz oylik

   (C) Bir yosh

   (D) Ikki yosh

3. Goldi quyidagi ishlarni bajarishi kerak boʻlgan har bitta buyruqni yozing. Birinchisi siz uchun bajarilgan.

   1. oʻtirishi: ________ oʻtir ________
   2. ovqatlanishi: ________________
   3. xojatga borishi: ________________

4. Nima uchun yoʻl koʻrsatuvchi kuchuklar aytilgan narsalarni bajarishni oʻrganishlari muhim?

   ________________________________

5. Goldi go‘sht do‘konida “shunchaki atrofga uzoq tikilib turardi”. Bu sizga u haqida qanday ma’lumot beradi?

(A) Uning xulqi yaxshi.

(B) U doim baxtli.

(C) U juda jo‘shqin.

(D) U ko‘pincha yolg‘iz.

6. Ba’zida Goldi qanday sho‘xliklar qilar edi?

(A) Go‘sht do‘koniga borar edi.

(B) Paypoq ichidagi koptokni o‘ynar edi.

(C) Ertalab Tim va Vitneyni uyg‘otar edi.

(D) Idish yuvadigan mashina ichidagi likopchalarni yalab qo‘yar edi.

7. Tim va Vitneyni tark etganidan so‘ng Goldi nima qiladi?

(A) ko‘zi ojiz inson bilan yashaydi

(B) yo‘l ko‘rsatuvchi kuchuklarni tayyorlaydigan maktabga boradi

(C) boshqa davlatga ko‘chib ketadi

(D) boshqa oila bilan vaqt o‘tkazadi

8. Goldi ketayotganida Vitney va Tim o‘zlarini qanday his qilishdi? Hamma hislarini tasvirlang va nima uchun ular o‘zlarini bunday his qilishlarini tushuntirib bering.

____________________________________________

____________________________________________

____________________________________________

9. Tim va Vitney yaxshi kuchuk tarbiyalovchilaridir. O'qiganlaringizdan kelib chiqib buni ko'rsatuvchi **uchta** misol keltiring.

___

___

___

10. Nima uchun ba'zida Vitney va Tim kuchuk tarbiyalovchisi bo'lish qiyin deb hisoblashar edi?

Ⓐ Ular Goldini maktabga olib borishlari kerak edi.

Ⓑ Ular ko'p kuchukchalarni parvarishlagan edi.

Ⓒ Ular ko'plab qoidalarga rioya qilishlari kerak edi.

Ⓓ Ular Goldi bilan ko'p o'ynashlari kerak edi.

11. Goldi kuchukchaligida baxtli bo'lgan deb o'ylaysizmi? Matndan foydalanib nima uchun shunday yoki shunday emasligini tushuntirib bering.

___

___

12. "Kuchuk tarbiyalash" maqolasining **asosiy** maqsadi nima?

Ⓐ yo'l ko'rsatuvchi kuchukcha haqida hikoya qilish

Ⓑ sizni yo'l ko'rsatuvchi kuchuk tarbiyachisi bo'lishingizda xohish uyg'otish

Ⓒ qanday qilib yo'l ko'rsatuvchi kuchuk bilan qanday munosabatda bo'lishni tasvirlash

Ⓓ yo'l ko'rsatuvchi kuchuklar anday qilib tayyorgarlikdan o'tishini tushuntirish

13. Muallif "Kuchuk tarbiyalash" maqolasining qiziqarli bo'lishi uchun nimalarni tasvirlash orqali erishmoqchi bo'ldi?

Ⓐ kuchukcha nimaga o'xshashini batafsil tasvirlash orqali

Ⓑ yo'l ko'rsatuvchi itlar ko'zi ojiz insonlarga aynan nima qilib yordam berishini tasvirlash orqali

Ⓒ haqiqiy kuchuk tarbiyalovchi bolalar haqida yozish orqali

Ⓓ kuchuk tarbiyalovchilar bajarishi kerak bo'lgan barcha ishlarning ro'yxatini tuzish orqali

# Ozuqa izlab

Bu yerda mayda hasharotlarning qanday qilib ozuqa topishi va oziqlanishi haqida uchta loyiha berilgan. Birinchi navbatda siz chumolilar, zahkashlar va chuvalchanglarni topib olishingiz kerak. Ularga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘ling va ularni o‘rganib chiqqaningizdan so‘ng ularni topgan joyingizga qaytarib qo‘ying.

- Chumolilarning izidan ergashish
- Zahkashlarni o‘rganish
- Chuvalchanglar saqlaydigan idish tayyorlash

### Chumolilar, zahkashlar va chuvalchanglarni qayerdan topish mumkin



## Chumolilarning izidan ergashish

Chumolilar inlarida birgalashib yashaydilar. Agar bitta chumoli ozuqa topsa, u boshqalari ergashishlari uchun iz qoldiradi. Siz ushbu tajribani bajarishingiz uchun chumolilarning inini topishingiz kerak bo'ladi. Shuningdek, sizga quyidagi materiallar kerak bo'ladi: bir varaq qog'oz, olmaning kichkina bo'lagi va bir hovuch tuproq.

1. Olma bo'lagini qog'oz ustiga qo'ying va qog'ozni chumolilarning iniga yaqinroq joyda qoldiring. Bir necha chumolilar olmani topgunlariga qadar kuting. Ularning barchasi bitta izdan ergashishlari kerak.
2. Olmani siljiting. Chumolilar to'g'ri unga borishadimi?
3. Endi izni yopish uchun qog'ozga tuproq seping. Chumolilar ma'lum vaqt davomida atrofda aylanib yurishlari mumkin. Ular yangi iz hosil qilishadimi?

**Nima sodir bo'ladi?**

Ozuqa siljitilgan bo'lsa hamki chumolilar yangi iz hosil qilinmagunicha eski izdan yurishadi.

**Nima uchun?**

Bitta chumoli ozuqa topishi bilanoq, o'zidan hidli iz qoldiradigan kimyoviy moddalar ajratib chiqaradi. Indagi boshqa chumolilar ushbu hidni sezish uchun o'zlarining mo'ylovlaridan foydalanadi.

## Zahkashlarni o‘rganish

Zahkashlarning sezgir mo‘ylovlari bor. Ushbu qutini tayyorlang, keyin idishga oltita zahkashni to‘plang, ularni qutiga qo‘yganingizda qanday qilib yo‘l topishlarini kuzating. Bunda sizga qopqoqli kichkina bo‘sh quti, qaychi, yelimli tasma va daraxtdan uzilgan nam barglar kerak bo‘ladi.




1. Rasmdagi yo‘laklarni yasash uchun uchta uzun bo‘laklarni hosil qilishda qopqoqdan foydalaning.
2. Zahkashlar o‘sha vaqtda yo‘lak bo‘ylab bittadan yurishiga qo‘yib bering. Ular yo‘lakning oxiriga yetib borganda ba’zilari chapga, ba’zilari esa o‘ngga buriladi.
3. Nam bargni qutining o‘ng tomoniga qo‘ying. Zahkashlarni yana quti ichida yurishga qo‘yib bering. Ular qaysi yo‘ldan borishadi?

**Nima sodir bo‘ladi?**
Zahkashlar ozuqa turgan tomonga, o‘ngga buriladi.

**Nima uchun?** Zahkashlar ozuqani o‘zlarining mo‘ylovlari bilan sezishadi. Ular mo‘ylovlaridan bargni topishda foydalanishadi.

## Chuvalchanglar saqlaydigan idish tayyorlash

Chuvalchanglarni oʻrganish qiyin, chunki ular yorugʻlikni yoqtirishmaydi. Ular yorugʻlikni sezishlari bilanoq, qorongʻu joy topishga harakat qilib qochishadi. Chuvalchanglar qanday qilib yashashi va oziqlanishini koʻrmoqchi boʻlsangiz, bu yerda koʻrsatilganidek chuvalchanglar saqlaydigan idish tayyorlang.

**Sizga quyidagilar kerak boʻladi:**

- Oyoq kiyim qutisi
- Yelimli tasma
- Ruchka
- Qaychi
- Katta plastik banka
- 1 stakan qum
- 3 stakan yumshoq tuproq
- Piyoz va kartoshkaning kichkina boʻlaklari

Keyin esa ikki yoki uchta chuvalchangni topib, uning ichiga soling. Shuni yodda saqlash muhimki, chuvalchanglarni tortmang, aks holda ularga jarohat yetkazishingiz mumkin. Ularning tanasi tuproqda mahkam sudralishi uchun tukchalar bilan qoplangan boʻladi.

1. Oyoq kiyim qutisi qopqogʻining bir tomonini eshikka oʻxshab ochilishi uchun qutiga yelimlang. Chuvalchanglar saqlaydigan idishga havo kirishi va yorugʻlik uchun qutining tepa qismini ruchka bilan teshing.

2. Plastik bankaning tepa qismini kesib oling, ichini yumshoq tuproq va qum qatlamlari bilan toʻldiring. Yuza qismiga kartoshka va piyoz soling.

3. Chuvalchanglarni ehtiyotkorlik bilan banka ichiga soling, soʻngra bankani qutiga joylashtirib, eshikni yoping. Uni tashqarida, salqin va quruq joyda toʻrt kunga qoldiring.

4. Toʻrt kundan keyin bankani koʻzdan kechiring. Tuproq va qum bir-biridan qanday farq qiladi?

**Unutmang:** ushbu loyihani tugatganingizdan soʻng chuvalchanglarni topgan joyingizga qaytaring.

**Nima sodir bo‘ladi?**
To‘rt kundan keyin tuproq va qum bir-biriga aralashib ketadi.

**Nima uchun?**
Chuvalchanglar yuza qismiga ko‘tarilayotganda ozuqani yeyish uchun qum bilan tuproqni aralashtiradi va yorug‘likdan qochish uchun yer ostida yo‘lak qaziydi.



## “Ozuqa izlab” matni yuzasidan savollar

1. Matnning asosiy maqsadi nima?

Ⓐ Siz bajara oladigan turli xil loyihalarni tasvirlash

Ⓑ Chumoli izlari haqida ma’lumot berish

Ⓒ Kichkina jonzotlarning nimaga o‘xshashini ko‘rsatish

Ⓓ Chuvalchanglar nima bilan oziqlanishini tushuntirish

2. Jonzotlarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish uchun nima qilishingiz kerak?

Ⓐ Ularni qoyalar va toshlar ostidan qidirish

Ⓑ Ular haqidagi hamma ma’lumotni topish

Ⓒ Imkon qadar ko‘proq jonzotlarni to‘plash

Ⓓ Ularni topgan joyingizga qaytarib qo‘yish

**3-5-savollar chumolilarni o‘rganish loyihasi haqida**

3. Nima uchun olmani chumolilarning ini yaqiniga qo‘ydingiz?

Ⓐ Chumoli izini to‘sib qo‘yish uchun

Ⓑ Chumolilar iz hosil qilishlari uchun

Ⓒ Chumolilarni adashtirish uchun

Ⓓ Chumolilar atrofda aylanib yurishlari uchun

4. Agar bitta chumoli ozuqani topishi bilanoq, indagi boshqa chumolilar buni qanday topishadi?

Ⓐ Ular birinchi chumolini kuzatishadi va unga ergashishadi.

Ⓑ Ular ozuqani topmagunlaricha, atrofda aylanib yurishadi.

Ⓒ Ular birinchi chumoli qoldirgan hidni sezishadi.

Ⓓ Ular qog'oz ustidagi ozuqani hidlashadi.

5. Nima uchun tuproqni sepganingizdan keyin chumolilar atrofda aylanib yurishdi?

1 ______________________________

**6-10-savollar zahkashlarni o'rganish loyihasi haqida**

6. Zahkashlar ozuqani qanday qilib topishadi?

Ⓐ Ular yo'laklarda yurishadi

Ⓑ Ular ozuqani mo'ylovlari yordamida sezishadi

Ⓒ Ular hidli izga ergashadi

Ⓓ Ular ozuqani qorong'uda ko'rishadi

7. Zahkashlarni o'rganish haqidagi rasmga qarang. Ushbu rasm tajribada nima qilishni bilishingiz uchun qanday yordam beradi?

2 ______________________________

8. Nima uchun qutiga barglarni solishdan oldin zahkashlarni yo‘lakka qo‘yib yuborishingiz kerak?

(A) Ular labirintni o‘rgana olish yoki olmasligini ko‘rish uchun

(B) Ozuqa yo‘q bo‘lganida ularning nima qilishlarini ko‘rish uchun

(C) Quti to‘g‘ri qo‘yilgan yoki qo‘yilmaganini ko‘rish uchun

(D) Qaysi biri qaysi tomonga burilishini ko‘rish uchun

9. Agar siz zahkashlar loyihasining 3-bosqichida nam barglarni qutining chap tomoniga siljitsangiz, sizningcha, nima sodir bo‘ladi?

1 ________________________________________

10. Chumolilar va zahkashning o‘z ozuqalarini topishidagi o‘xshashliklari nimada?

1 ________________________________________

**11-13-savollar chuvalchanglar saqlanadigan idish loyihasi haqida**

11. Chuvalchanglar saqlanadigan idishni tayyorlash uchun amal qilishingiz kerak bo‘lgan bosqichlarga raqam qo‘ying. Birinchisi siz uchun bajarilgan.

_____ bankani poyabzal qutisiga joylashtirish
__1__ poyabzal qutisining tepa qismini teshish
_____ chuvalchanglarni ichiga solish
_____ piyoz va kartoshkani solish
_____ bankani tuproq va qum bilan to‘ldirish

12. Nima uchun bankaga tuproq va qum qatlamlarini solish muhimligini tushuntiring.

(1) ________________________________________

13. Tuproqning yuza qismiga kartoshka va piyoz solish chuvalchanglar saqlaydigan idish lohiyasida nima uchun muhimligini izohlang?

(2) ________________________________________

14. Har bir loyihada alohida katak bo'lib, uning ichiga *"Nima sodir bo'ladi"* va *"Nima uchun"* deb yozilgan. Ushbu kataklardan ko'zlangan maqsad nima?

Ⓐ Loyiha bosqichlarini tushuntirish

Ⓑ Loyihada nimalar kerakligini aytish

Ⓒ Tugatganingizdan keyin nima qilishingiz kerakligini aytish

Ⓓ Nimani ko'rganingizni tushuntirish

15. Uchta loyihadan qaysi birini eng qiziqarli deb hisoblaysiz? Javobingizni izohlash uchun matndagi ma'lumotlardan foydalaning.

(2) ________________________________________

________________________________________

________________________________________

________________________________________

# Fazoga sayr



*Selli Rayd ilk marotaba fazoga chiqqan ayollardan hisoblanadi. Uni fazo kemasidan tashqarida ishlash uchun skafandr kiyishi haqida yozganlarini o‘qing*

**Tayyorgarlik ko‘rish**

Fazoda biror ishga tayyorgarlik ko‘rish, yerdagidek oson emas. Fazo kemasida fazoda sayohat qiladigan fazogirlar turli ishlarni amalga oshirishlari kerak. Bajariladigan ishlarning ko‘p qismi fazo kemasi ichida amalga oshirilishi mumkin, ammo ayrim hollarda fazogirlar biror tajriba o‘tkazish yoki ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uchun fazo kemasidan tashqariga chiqishlariga to‘g‘ri keladi.

Fazo kemasida bo‘lish aynan Yerda bo‘lishdek emas. Yerda mavjud bo‘lgan tortishish kuchi bizni havoda muallaq turmasligimizni ta’minlaydi. Fazoda esa fazogirlar vaznsizlik holatini boshdan kechiradilar. Arzimas kichik harakat ham ularni xona bo‘ylab havoda suzib yurishga yoki havoda muallaq turishiga sababchi bo‘lishi mumkin. Bu holatdan chiqishning yagona yo‘li biror mahkamroq narsani tutib turishdir.

Insonlar odatdagi kiyimlar bilan fazoda yashay olmas edilar. Fazo kemasida ekanliklarida, fazogirlar tashqi fazo bo‘shlig‘idan himoyalanadi, ammo kemadan tashqarida nafas olish uchun hech qanday havo yo‘q va harorat juda yuqori yoki juda past bo‘lishi mumkin. Fazodagi obyektlarning quyosh nuri tushib turgan qismidagi harorat selsiy shkalasi bo‘yicha 115 darajagacha qizib ketishi mumkin, soyadagi qismi esa selsiy shkalasi bo‘yicha 95 darajagacha sovub ketadi!

Fazo kemasi ichidagi himoyalanish doirasidan chiqishda fazogirlar maxsus skafandr kiyishlari kerak. Har qanday fazo sathiga ikki fazogir birgalikda tashqariga chiqadi, chunki noma'lum muhitda ishlashda hamroh bilan chiqish osonroq va xavfsizroqdir. Tashqariga chiqmoqchi bo'lganlar bir necha soat oldin kiyinishni boshlaydilar. Ikkita skafandr  bir tomonidan asosiy xonani yopadigan, boshqa tomonidan esa fazoga ochiladigan, kichik bo'lmadan iborat havo shlyuziga olib boriladi.

# Skafandrni kiyish

**1** Birinchi, fazogirlar egiluvchan naychalar mahkamlangan rezinadan yasalgan, uzun ichki kiyimga o‘xshash maxsus kiyimni kiyadilar. Fazogirlarni sovutish uchun ushbu naychalar orqali suv yuboriladi, chunki tana harorati skafandrdan tashqariga chiqib keta olmaydi.

**3** Fazogirlar havo shlyuzi ichida suzadi va skafandrning yuqori qismiga joylashadi. Skafandrning yuqori qismi egiluvchan qo‘llarga ega qattiq qobiqdan iborat. Bo‘yin qismida joylashgan, dubulg‘aga ulangan metal halqaga fazogirning boshi joylashadi va uning qo‘llari esa qo‘lqoplar mahkamlanadigan ikki metal halqalar ichiga kiritiladi. Skafandrning bu qismi Yerda juda og‘ir. U fazogirni kislorod zahirasi, suv, sovutkichlar, sovutkichlarni harakatlantiruvchi batareyalar va ularni fazodagi sayr paytida tirik saqlashi uchun havo nasoslari bilan ta’minlaydi.




**2** Keyin, fazogirlar skafandrning pastki yarmini tortib oladilar. Pastki qism bitta bo‘lakda: katta, qattiq etik, tashqi tomondan izolyatsiya qilingan shimlarga biriktirilgan. Yerda fazogirlar bu shim bilan burilish uchun polda yotishlari kerak bo‘lar edi. Fazoda esa ular havoda muallaq turib suzib yurgancha kiyim ichida bemalol harakatlanishi mumkin.

**4** Fazogirlar juftligi maxsus kiyimda ekanligida, ulardan biri (fazo kemasi ichida qolgani) kostyumning qismlarini bir-biriga bog‘lab qo‘yishga yordam beradi. Dubulg‘alarni kiyishdan avval, fazogirlar bir-birlari va boshqa ekipaj a’zolari bilan gaplashishlari uchun old qismdagi quloqchin va mikrofonlar ichiga joylashtirilgan radiosi bor maxsus kaskani kiyishadi.




**5** Nihoyat, fazogirlar dubulg‘a va katta, noqulay maxsus qo‘lqoplarni kiyishga tayyor. Ular kaskalarni to‘g‘irlaydi va so‘nggi marta burunlarini qashib oladilar. Ular fazoga sayr tugamaguncha bu narsalarni qayta bajara olmaydilar.

Yordam bergan fazogir havo shlyuzini tark etadi va lyukni yopadi. O‘zlarining qo‘pol kiyimlari bilan ikkala fazogir kichik havo shlyuzi ichini deyarli egallab oladi. Skafandr ichidagi havo sekinlik bilan tashqariga so‘rilib chiqquncha fazogirlar bir necha daqiqa shlyuz ichida kutib turadi. Bosim o‘lchagichning ichkaridagi havo to‘liq so‘rib chiqarilganini ko‘rsatishini kutib turadi va quloqlari bitayotganini his qiladi.

Nihoyat lyuk eshigini ochib, ochiq fazoga chiqishlari mumkin. Ular havo shlyuzidan chiqib ketishdan oldin, maxsus kiyimlarni bir-biriga mahkamlash uchun ingichka simli ilgakdan foydalanadilar. Bu simli ilgaklar ularni fazo kemasidan uzoqlashib ketmasliklariga yordam beradi.

**Fazo qo‘ynida**



Fazo qo‘ynida suzar ekan, fazogirlar tirik sun’iy yo‘ldoshga aylanadi. Ular yer kurrasini aylanadi! Ularga bir muddat fazo kemasi kerak bo‘lmaydi, chunki ularning maxsus kiyimlari havo va batareyaning quvvatiga ega bo‘lib, ularni taxminan yetti soat davomida tirik saqlashi mumkin. Hatto har bir shlem ichida oziq-ovqat tayog‘i va suv sumkasi bor.

Ular fazo kemasining yuk tashish bo‘lmasiga boradilar, bu yerda fazoda sayr qilish uchun kerakli bo‘lgan uskunalar katta uskunalar qutisida saqlanadi. Ular kerakli uskunalarni olib, ularni bel yoki tirsak sohalariga bog‘lab qo‘yadilar.

Skafandrda ishlash oson emas. Fazogirning barmoqlari, qo‘llari va butun qo‘l qismi toliqadi, chunki har bir amalga oshiriladigan harakat kiyim ichkarisidan uning qismiga qarshi itarish harakatini talab etadi.

Fazoda bir necha vaqt bo‘lgandan so‘ng fazo kemasi ichida qolgan boshqa ekipaj oldiga qaytish vaqti bo‘lganida, fazogirlar havo shlyuzi ichkarisiga kiradi. Ular charchagan bo‘lishlariga qaramasdan, tashqi shlyuz eshigini yopishdan avval Yer va osmonga so‘nggi marta nazar tashlaydi.

## “Fazoga sayr” matni yuzasidan savollar

1. Matnning **asosiy** mazmuni nimadan iborat?

   Ⓐ nima sababdan fazogirlar birgalashib ishlashi haqida

   Ⓑ fazo kemasi qanday ekani haqida

   Ⓒ nima sababdan fazogirlar fazoda topshiriq bajarishlari haqida

   Ⓓ ochiq fazoda ishlash qanday bo‘lishi haqida

2. Fazogirlar fazo kemasidan tashqariga chiqishlarining sabablaridan biri nima?

   Ⓐ ta’mirlash ishlari uchun

   Ⓑ yerni yaxshiroq ko‘rishlari uchun

   Ⓒ sovib olish uchun

   Ⓓ sarguzasht izlash uchun

3. Matnga ko‘ra, fazo kemasida va yerda bo‘lish o‘rtasida qanday **asosiy** farq mavjud?

   1 ______________________________________________

4. Nima uchun fazogirlar fazoda bo‘lganlarida maxsus kiyim kiyishlari kerak? Matnga asoslanib, **ikkita** sabab keltiring.

1. ____________________

____________________

2. ____________________

____________________

5. Nima sababdan fazogirlarga fazoga chiqishlari uchun bir necha soat tayyorgarlik ko‘rishlari kerak bo‘ladi?

____________________

6. Nima uchun fazogirlar har doim ikki kishi bo‘lib fazoga chiqadilar?

(A) ular bir-birlariga yordam berishi uchun

(B) fazoda uzoqroq qolishlari uchun

(C) kemadan uzoqlashib ketmasliklari uchun

(D) yanada qiziqroq bo‘lishi uchun

7. Nima sababdan havo shlyuzida uchinchi fazogirning bo‘lishi kerak bo‘ladi?

____________________

____________________

____________________

8. Fazogirlar maxsus kiyimni kiyish jarayonini tartibga soling. Birinchisi siz uchun bajarilgan.

_____ skafandrning bosh qismi
_____ dubulg‘a
__1__ sovutish kiyimi
_____ tananing pastki qismi uchun kiyim
_____ radio quloqchinli kaska

9. Skafandr ichidagi rezina naychalar fazogirlarga qanday yordam beradi?

(A) Ular fazogirlarni mustahkam ushlab turadi.

(B) Fazogirlarni kislorod bilan ta’minlaydi.

(C) Ular fazogirlar tanasini issiqdan qizib ketishini oldini oladi.

(D) Ularni boshqa ekipaj a’zolari bilan gaplashishiga yordamlashadi.

10. Nima sababdan tananing yuqori qismidagi qattiq kiyim skafandrning eng muhim qismi hisoblanadi?

1 ______________________________________________

______________________________________________

11. Nima sababdan muallif “so‘nggi marta burunlarini qashib oladi” degan jumlani ishlatgan?

1 ______________________________________________

______________________________________________

12. Matnning Skafandrni kiyish bo‘limiga qarang. Raqamlangan jadval o‘quvchiga ma’lumotni tushunishi uchun yordam berish sabablaridan **birini** ko‘rsating.

1

13. Fazogir ochiq fazoda ekanida uni kemadan uzoqlashib ketmasligiga nima yordam beradi?

- (A) batareya qutisi
- (B) maxsus fazo etiklari
- (C) ingichka simli ilgaklar
- (D) qo‘l bilan tutib turish

14. Nima sababdan havo shlyuzi fazo kemasining eng muhim qismi hisoblanadi?

1

15. Tasavvur qiling, siz fazogir bo‘lmoqchisiz. Maqoladagi ma’lumotlardan foydalanib, fazogir bo‘lishning **bitta yoqqan** va **bitta yoqmagan** jihatini ifodalovchi biror mulohaza keltiring va javobingizni asoslang.

Sizga **yoqqan** jihati va nima uchun:

1

Sizga **yoqmagan** jihati va nima uchun:

1

## 3. PIRLS TADQIQOTI DOIRASIDAGI MATNLARNING TOPSHIRIQLARINI BAHOLASH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

### Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro PIRLS tadqiqotida savollarga berilgan javoblarni baholash YO‘RIQNOMASI

PIRLS xalqaro tadqiqotining qamrov doirasida keltirib o‘tilganidek, ushbu tadqiqotda to‘rtinchi sinf o‘quvchilarining turli xil matnlarni o‘qish va o‘qigan matnlarining ma’nosini tushunish qobiliyatini baholash imkonini beradi.

O‘qish o‘quvchilar tomonidan, asosan, maktabda yoki maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan faoliyat bo‘lib, bunda o‘qish savodxonligini baholash ikkita maqsadga qaratiladi:



Baholashda qo'llaniladigan o'quv materiallari ushbu maqsadlarga asoslangan holda tanlab olingan. Odatda, baholash uchun tanlab olingan har bir matn ikkita maqsaddan biri uchun o'qiladigan matn turini ifodalaydi.

Baholashda matnni tushunishga mo'ljallangan har bir savol ushbu to'rtta tushunish jayonlarini aniqlash va baholashga qaratiladi.

Barcha mamlakatlar elektron baholashga o'tishga tayyor emasliklari sababli PIRLS 2021 ikki xil, ya'ni raqamli va qog'oz shaklda o'tkaziladi. Shuningdek, raqamli PIRLS simulyatsiya qilingan internet muhitida ma'lumotni onlayn o'qishni baholaydigan elektron PIRLS (ePIRLS)ni o'z ichiga oladi. Dunyo mamlakatlari baholashda qatnashadigan barcha o'quvchilar uchun raqamli PIRLS yoki qog'oz shaklidagi PIRLS ni qo'llashni o'zining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlaydi. Shuningdek, tadqiqotda ilk marotaba qatnashayotgan davlatlar uchun xalqaro pudratchi tashkilotlar tomonidan qog'oz shaklini tanlash tavsiya etiladi.

Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda PIRLS tadqiqotini o'tkazishning qog'oz shakli tanlangan. Baholash jarayonlarining tashkiliy shaklidan qat'iy nazar, har bir o'quvchi matn (yoki elektron PIRLSda veb sahifa) va savollar to'plamidan iborat bo'lgan ikkita bo'lim yoki qismni bajarishi belgilangan. Har bir qismni bajarish uchun o'quvchilarga 40 daqiqa vaqt beriladi. Bunda ular berilgan matnni o'qishlari va matnni tushunishga qaratilgan savollarga javob berishlari lozim bo'ladi.

Baholash jarayonlarining tashkiliy shaklidan qat'iy nazar, PIRLS 2021 natijalarini shakllantirishda bitta shkaladan foydalaniladi. Bunda raqamli va qog'oz shaklidagi tadqiqotlarda o'quvchilar savollarga qaysi shaklda javob berishlaridan qat'iy nazar, savollarning mazmuni va ularni baholash mezonlari deyarli bir xil bo'ladi (ba'zi bir raqamli xususiyatlar bundan mustasno).

O'quvchilarning matnlarni tushunishini baholash uchun PIRLS tadqiqotida turli xil savol formatlari qo'llaniladi. Birinchi turi – javob varianti tanlanadigan yopiq savollar, bunda o'quvchilarga savolga eng

yaxshi javob bo'lishi mumkin bo'lgan javobni tanlash uchun to'rtta variant beriladi. To'rtta variantli har bir savolda bitta to'g'ri javob bo'ladi. Bu turdagi savolga berilgan to'g'ri javob 1 ball bilan baholanadi.

Baholashda qo'llaniladigan formatning boshqa turi – bu o'quvchining savolga o'zi javob berishi talab etiladigan ochiq savollardir. Ushbu savol formati yordamida o'quvchilar bir nechta variantlardan birini tanlash o'rniga, savol(lar)ga javob(lar)ni o'zlari yozishlari kerak bo'ladi. Ba'zi hollarda o'quvchilar savollarga javob berish uchun tanlovni amalga oshiradilar (masalan, "Ha" yoki "Yo'q"), so'ngra ushbu tanlov uchun matndan dalillarni keltirgan holda izoh yozadilar. Bu turdagi savollarga berilgan javoblarga muayyan ball belgilash aniq mezonlarga asoslangan ko'rsatmalar yordamida, maxsus tayyorgarlikdan o'tkazilgan baholovchilar tomonidan amalga oshiriladi.

PIRLS tadqiqotida yana **ikkita** savol turidan foydalanadi, bular:

1. O'quvchilar tomonidan savolga bir nechta to'g'ri javob tanlanadigan savollar (odatda bu turdagi savollarda "tegishli bo'lgan barcha javoblarni belgilang" iborasi qo'llaniladi);

2. O'quvchilar matnda tasvirlangan yoki hikoya qilingan voqealarni matnga asoslangan holda to'g'ri ketma-ketlikda belgilashlari lozim bo'lgan savollar.

**Ochiq savollarni baholash mezoni**

Ochiq savollarni baholashda **bir** ballik, **ikki** ballik va **uch** ballik baholash mezonlari joriy etiladi.

**Bir ballik savollarni baholash mezoni**

Qabul qilinadigan javob (1 ball). Bunday javoblar matnning ushbu savolga tegishli bo'lgan qismi tushunilganligini ifodalaydi. Ular savolda so'ralgan barcha elementlarni o'z ichiga oladi. Matndagi g'oyalar yoki ma'lumotlarga asoslangan javoblar to'g'ri deb sanaladi.

Qabul qilinmaydigan javob (0 ball). Bunday javoblar matnning ushbu savolga tegishli bo'lgan qismi tushunilmaganligini ifodalaydi. Javobda savolda so'ralgan elementlarning bir qismi yoki barchasini taqdim etishga urinishlar bo'lishi mumkin, ammo javoblar matndagi ma'lumotlar yoki

tushunchaga ko'ra noto'g'ri ekanligini anglatadi. Shuningdek, javobda juda noaniq yoki savol bilan bog'liq bo'lmagan tushunchalar yoki ma'lumotlar keltirilgan bo'lishi mumkin.

**Ikki ballik savollarni baholash mezoni**

<u>To'liq tushunish (2 ball)</u>. Bunday javoblar o'quvchi tomonidan matnning ushbu savolga tegishli bo'lgan qismi tushunilganligini ifodalaydi. Ular savolda so'ralgan barcha elementlarni o'z ichiga oladi. Zarur bo'lganda, javob so'zma-so'z tushunishni emas, balki tushunish darajasini namoyon etadi va ularda matnga mos keladigan tegishli talqinlar, xulosalar yoki baholar beriladi. Yoki javoblarga asoslangan holda talqin qilish, xulosa qilish yoki baholashni qo'llab-quvvatlash uchun to'liq va yetarli tushunchalar yoki ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

<u>Qisman tushunish (1 ball)</u>. Bunday javoblar matnning ushbu savolga tegishli bo'lgan qismini qisman tushunilganligini ifodalaydi. Ular savolda so'ralgan elementlarning barchasini emas, balki bir nechtasini o'z ichiga olishi mumkin. Yoki ularda savolga javob beradigan barcha elementlar qayd etilgan bo'lishi mumkin, ammo savolda mavhumroq tushunchani izohlash, xulosa qilish yoki tushunish so'ralganda faqat so'zma-so'z tushunish namoyish etilishi mumkin. Agar savolda talqin qilish, xulosa qilish yoki baholash uchun izoh berish so'ralsa, javoblar matnga asoslanmagan bo'lishi yoki matnga aloqasi bo'lmagan, noaniq ma'lumotlar keltirilishi mumkin.

<u>Mutlaqo tushunmaslik (0 ball)</u>. Bunday javoblar matnning ushbu savolga tegishli bo'lgan qismi mutlaqo tushunilmaganligini ifodalaydi. Javobda savolda so'ralgan elementlarning bir qismi yoki barchasini taqdim etishga urinishlar bo'lishi mumkin, ammo javoblar matndagi ma'lumotlar yoki tushunchaga ko'ra noto'g'ri ekanligini anglatadi. Shuningdek, javobda juda noaniq yoki savol bilan bog'liq bo'lmagan tushunchalar yoki ma'lumotlar keltirilgan bo'lishi mumkin

**Uch ballik savollarni baholash mezoni**

<u>Keng tushunish (3 ball)</u>. Bunday javoblar o'quvchi tomonidan matnning ushbu savolga tegishli bo'lgan qismi keng tushunilganligini ifodalaydi.

Ular savolda talab qilingan barcha elementlarni oʻz ichiga oladi. Zarur boʻlganda, javob nisbatan murakkab, mavhum yoki matnning mavzusi yoki asosiy mavzusi uchun markaziy boʻlgan gʻoyalar va maʼlumotlarni tushunilganligini ifodalaydi. Bunda ular matnni toʻgʻridan-toʻgʻri tushunishni namoyon etgan holda savolga binoan xulosalar, izohlash yoki baholashlar uchun matnni keng qamrovli izohlaydi.

Qoniqarli tushunish (2 ball). Bunday javoblar oʻquvchi tomonidan matnning ushbu savolga tegishli boʻlgan qismi qoniqarli tushunilganligini ifodalaydi. Ular savolda talab qilingan barcha elementlarni oʻz ichiga olishi mumkin, ammo matndagi tushunchalarni yoki nisbatan murakkab yoki mavhumroq deb hisoblanishi mumkin boʻlgan maʼlumotlarni tushunilganligini anglatuvchi dalillarini ifodalamaydi. Javoblar matnni soʻzma-soʻz tushunishdan tashqari, xulosa qilish, talqin qilish yoki baholash uchun baʼzi dalillarni koʻrsatadi, ammo javobda matndan keltirilgan maʼlumotlar yetarli boʻlmasligi mumkin.

Minimal tushunish (1 ball). Bunday javoblar oʻquvchi tomonidan matnning ushbu savolga tegishli boʻlgan qismi minimal darajada tushunilganligini ifodalaydi. Ular savolda talab qilingan elementlarning barchasini emas, balki bir nechtasini oʻz ichiga oladi. Ular matndagi aniq tushunchalarni yoki maʼlumotlarni tushunganliklarini soʻzma-soʻz ifodalashlari mumkin, ammo savolga koʻra ular oʻrtasida bogʻliqlik mavjud boʻlmaydi. Savolga koʻra, xulosa qilish yoki talqin qilish uchun matn yordam berishi kerak boʻlsada, javoblar faqat matnda yetarli boʻlmagan yoki aloqador boʻlmagan dalillarni oʻz ichiga olishi mumkin.

Qoniqarsiz tushunish (0 ball). Bunday javoblar oʻquvchi tomonidan matnning ushbu savolga tegishli boʻlgan qismi qoniqarsiz tushunilganligini ifodalaydi. Javobda savolda soʻralgan baʼzi bir elementlarni keltirish uchun urinishlar kuzatilishi mumkin, ammo ular matndagi gʻoyalar yoki maʼlumotlarga asoslangan holda notoʻgʻri yoki nooʻrin ekanligini anglatadi. Javoblar faqat tushunchalarni yoki maʼlumotni oʻz ichiga oladi, ular juda noaniq yoki hech boʻlmaganda minimal tushunishning biror dalili savol bilan bogʻliq boʻlmaydi.

Shuningdek, izohlanmagan javoblarga **"0"** ball qo'yiladi. Bunga chizilgan va o'chirilgan urinishlar, o'qishga yaroqsiz va topshiriqqa doir bo'lmagan javoblar, chizmalar kiradi.

Ochiq savollarda "javobsiz" holat (javob berilmagan) ni qanday kodlashning o'ziga xos jihatlari mavjud. Buning uchun ikkita kod belgilangan: **"8"** va **"9"** kodlari. Javob bermaslik holatlaridagi ushbu kodlarni tayinlashda quyidagi ko'rsatmalarga amal qilish lozim:

**8** kodi PIRLS tadqiqotida qog'oz shaklida ishtirok etuvchi mamlakatlarda foydalanilishi ko'zda tutilgan bo'lib, elektron shaklda ishtirok etayotgan mamlakatlar uchun ahamiyatga ega emas. Chunki, tadqiqotning tashkiliy shaklidan kelib chiqqan holda, "Joriy etilmaydigan" deb tasniflangan savollarga berilgan javoblarni ko'rib chiqilmasligi belgilangan. Ushbu koddan (8 kodi) savol xato chop etilgan, sahifa tushib qolgan yoki o'quvchiga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablar bo'lgan holatlarda foydalaniladi. Masalan, xato chop etilgan baholash daftari o'quvchining savolga noto'g'ri javob berishiga olib kelishi mumkin yoki biror bir hodisa tufayli o'quvchi savolga javob bera olmasligi mumkin.

**9** kodi esa PIRLS tadqiqotida jarayonlarning tashkiliy shaklidan qat'iy nazar barcha mamlakatlar uchun joriy etiladi. Ushbu koddan (9 kodi) javob yoziladigan joy butunlay bo'sh qoldirilgan yoki matnga aloqasi bo'lmagan tasodifiy belgilar qo'yilgan holatlarda foydalaniladi. Lekin, o'quvchi savolga javob berish uchun ma'lum darajada urinib ko'rganligiga dalil mavjud bo'lsa, **9** kodi QO'LLANILMAYDI.

O'quvchilarning javoblari kim tomonidan baholanishidan qat'iy nazar tizimli baholanishi juda muhimdir. Bu, har bir baholovchi o'quvchilarning javoblarini boshqa baholovchilar kabi baholashi lozim ekanligini anglatadi. Baholovchi baholash yo'riqnomasining har bir tafsilotini doim ham ma'qullamasligi mumkin. U umumiy baholash jarayonida sifatni eng yuqori darajada ta'minlashi uchun baholash bo'yicha yo'riqnomaning maxsus jihatlariga tizimli ravishda amal qilishi kerak. Baholovchilar o'quvchining bergan javobini baholash yo'riqnomasida keltirilgan baholash darajasi tavsiflari bo'yicha ko'rib chiqishga mas'uldirlar.

# 4. PIRLS TADQIQOTLARIDA FOYDALANILGAN MATNLAR YUZASIDAN BERILGAN SAVOL VA TOPSHIRIQLARNI BAHOLASH MEZONLARI

Ushbu baholash mezonlari Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan ishlab chiqilgan 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro PIRLS tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish uchun mo'ljallangan 3-sonli Axborotnomada berilgan matnlar yuzasidan savol va topshiriqlarning javoblarini baholashga qaratilgan.

3-sonli Axborotnomada 8 ta matn berilgan bo'lib, ular PIRLS tadqiqoti tamoyillariga ko'ra, o'quvchilarning matnni o'qib, axborot olish va foydalana olish hamda badiiy tajriba orttirishini baholash va rivojlantirishga mo'ljallangan. 3-sonli Axborotnomada matnlar va mazkur matnlarga asoslanib, o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholashga mo'ljallangan savol va topshiriqlar berilgan bo'lib, ular javobi tanlanadigan savollar va javobini yozma bayon qilish lozim bo'lgan ochiq savollardan iborat topshiriqlar guruhini o'z ichiga olgan.

Ushbu baholash mezonlari 3-sonli Axborotnomadagi matnlarni o'qib, matn yuzasidan savol va topshiriqlarga o'quvchilar tomonidan berilgan javoblarni tahlil qilishda o'qituvchilar va ota-onalar uchun qo'llanma vazifasini bajarishga qaratilgan bo'lib, quyida undan foydalanish bo'yicha asosiy tushuncha va yo'riqnomalar berilgan.

Ushbu baholash mezonlaridan foydalanishdan oldin, 3-sonli Axborotnomada berilgan matnlarni va ular yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarni o'qib chiqish tavsiya etiladi.




## 3 - sonli Axborotnomadagi matnlar

# MARVARID

## MARVARID, 1-SAVOL

To‘g‘ri javob: D

## MARVARID, 2-SAVOL

To‘g‘ri javob: B

## MARVARID, 3 – SAVOL

**Nima uchun qiz marvarid haqiqatdan ham Joshniki, deb aytdi?**

*Jarayon: Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotni topish*

Quyidagi mazmunda javob berilgan bo‘lsa, javob qabul qilinadi va “1” ball beriladi

Javobda Josh marvaridni topgani ifoda etiladi

*Masalan:*

- U marvaridni topdi

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo‘lsa, javob qabul qilinmaydi va “0” ball beriladi.**

Javobda Josh marvaridni topgani ifoda etilmaydi. Noaniq, matn bilan bog‘liq bo‘lmagan yoki savoldagi so‘zlar takrorlanishi mumkin.

## MARVARID, 4-SAVOL

**Nima uchun Josh Rubenga marvaridni olishi mumkinligini aytdi?**

*Jarayon: Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotni topish*

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo‘lsa, javob qabul qilinadi va “1” ball beriladi**

Javobda Rubenning marvaridni juda yaxshi ko‘rishi ifoda etiladi.

*Masalan:*

-Chunki u haqiqatdan ham unga yoqadi.

-Chunki u haqiqatdan ham uni yaxshi ko‘radi.

-U uni yaxshi ko‘radi.

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo‘lsa, javob qabul qilinmaydi va “0” ball beriladi**

Javobda Rubenning marvaridni juda yaxshi ko‘rishi ifoda etilmaydi. Noaniq, matn bilan bog‘liq bo‘lmagan yoki savoldagi so‘zlar takrorlanishi mumkin.

*Masalan:*

- U uni xohladi.

## MARVARID, 5-SAVOL

**Ruben marvaridni olganidan so'ng hayotida qanday o'zgarishlar qildi? Ikkita misol keltiring.**

*Jarayon: To'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish*

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o'quvchining matnni to'liq tushunganligi namoyon bo'ladi va "2" ball beriladi.**

Javobda quyidagilardan ikkitasi ifoda etilishi mumkin:

- Endi do'stlari bilan o'ynamaydi/tashqariga chiqmaydi.
- Marvaridlar haqida o'qiydi/marvaridlarni o'rganadi.
- Qisqichbaqasimonlar/chig'anoqlar haqida o'qiydi/o'rganadi.
- Marvaridlarni sovg'a sifatida so'raydi/ko'proq marvaridlarga ega bo'lishni xohlaydi.
- Marvarid savdogari bo'lishni xohlaydi.

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o'quvchining matnni qisman tushunganligi namoyon bo'ladi va "1" ball beriladi.**

Javobda faqat bitta ma'lumot yoziladi.

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo'lsa, javob qabul qilinmaydi va "0" ball beriladi**

Javobda Rubenning bironta ham harakati yozilmaydi. Noaniq, matn bilan bog'liq bo'lmagan yoki savoldagi so'zlar takrorlanishi mumkin.

## MARVARID, 6 – SAVOL

**Ruben shaharni tark etgach qayerga bordi?**

*Jarayon: Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish*

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo'lsa, javob qabul qilinadi va "1" ball beriladi.**

Javobda Rubenning katta shaharga borishi ifoda etiladi. Shuningdek, okean qirg'og'i yoki boshqa mamlakatlar kabi javoblar ham qabul qilinadi.

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo'lsa, javob qabul qilinmaydi va "0" ball beriladi.**

Javobda Rubenning katta shaharga borishi ifoda etilmaydi. Noaniq, matn bilan bog'liq bo'lmagan yoki savoldagi so'zlar takrorlanishi mumkin.

## MARVARID, 7-SAVOL

To'g'ri javob: D

## MARVARID, 8 – SAVOL

To‘g‘ri javob: A

## MARVARID, 9 – SAVOL

**Ruben qanday qilib boy odamga aylandi?**

*Jarayon: G‘oyalar va ma’lumotlarni talqin qilish va uyg‘unlashtirish*

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo‘lsa, javob qabul qilinadi va “1” ball beriladi.**

Javobda marvaridlarni sotib olis/ sotish/topish/yig‘ish Rubenni boy odamga aylantirishi ifoda etiladi

*Masalan:*

-U dunyoning turli burchaklaridan juda ko‘p marvaridlar topadi.

-Marvaridlar savdosi bilan shug‘ullanadi.

-Marvaridlarni yig‘ish bilan shug‘ullanadi.

-U marvarid savdogari edi.

-Uning marvaridlari uchun odamlar unga pul berishar edi.

-Boshqa savdogarlar u bilan uchrashish va uning marvaridlarini sotib olish uchun dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyurar edi.

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo‘lsa, javob qabul qilinmaydi va “0” ball beriladi.**

Javobda marvaridlarni sotib olis/ sotish/topish/yig‘ish Rubenni boy odamga aylantirishi ifoda etilmaydi. Boylik haqidagi javob bo‘lishi mumkin, ammo boylik va marvarid o‘rtasidagi aloqa tavsiflanmagan javob ham qabul qilinmaydi. Noaniq, matn bilan bog‘liq bo‘lmagan yoki savoldagi so‘zlar takrorlanishi mumkin.

*Masalan:*

- U boyib ketdi.

## MARVARID, 10 – SAVOL

To‘g‘ri javob: C

## MARVARID, 11 – SAVOL

**Josh Rubenning qaytganidan mamnun. Josh buni ko‘rsatuvchi nima qildi?**

*Jarayon: To‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosalar chiqarish*

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo'lsa, javob qabul qilinadi va "1" ball beriladi.**

Javobda Joshning Rubenni ko'rishdan mamnun ekanligi haqida bitta dalil keltiriladi.

*Masalan:*

-U –"Seni ko'rganimdan xursandman",-deydi.

-Ular soatlab gaplashib o'tirishadi.

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo'lsa, javob qabul qilinmaydi va "0" ball beriladi.**

Javobda Joshning Rubenni ko'rishdan mamnun ekanligi haqida dalil keltirilmaydi. Noaniq, matn bilan bog'liq bo'lmagan yoki savoldagi so'zlar takrorlanishi mumkin.

*Masalan:*

- U bolalari bilan o'ynayotgan edi.

-U yetarlicha shaharda bo'ldi.

-U orqaga qaytmoqchi.

## MARVARID, 12 – SAVOL

To'g'ri javob: A

## MARVARID, 13– SAVOL

**Ruben Joshga ikkita narsa berishni taklif qildi. Ular nima edi?**

*Jarayon: Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish*

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o'quvchining matnni to'liq tushunganligi namoyon bo'ladi va "2" ball beriladi.**

Javobda Ruben taklif qilgan ikkita narsa ifoda etiladi:

- (Yangi) uy.
- (Yaltiroq) qayiq.

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o'quvchining matnni qisman tushunganligi namoyon bo'ladi va "1" ball beriladi**

Javobda Rubenning taklif qilgan bitta narsa ifoda etiladi.

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o'quvchining matnni mutlaqo tushunmaganligi namoyon bo'ladi va "0" ball beriladi.**

Javobda Rubening ikkala taklifi ham ifoda etilmaydi. Noaniq, matn bilan bog'liq bo'lmagan yoki savoldagi so'zlar takrorlanishi mumkin.

## MARVARID, 14 – SAVOL

To‘g‘ri javob: C

## MARVARID, 15 – SAVOL

**Hikoyaga ko‘ra Josh yaxshi odam. Joshning yaxshi odam ekanligini ko‘rsatadigan ikkita narsani yozing.**

*Jarayon: G‘oyalar va ma’lumotlarni talqin qilish va uyg‘unlashtirish*

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o‘quvchining matnni to‘liq tushunganligi namoyon bo‘ladi va “2” ball beriladi.**

Javobda Joshning kamida ikkita harakati ifoda etiladi:

- Hikoyaning boshida o‘zining marvaridini beradi.
- O‘zi uchun qimmatbaho sovg‘alarni xohlamaydi.
- Do‘stini yaxshi kutib oladi.
- Rubenga pulini hammaga bo‘lishishini taklif qiladi.

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o‘quvchining matnni qisman tushunganligi namoyon bo‘ladi va “1” ball beriladi.**

Javobda yuqoridagi fikrlardan bittasini tushunganligi ko‘rsatilgan bo‘ladi.

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o‘quvchining matnni mutlaqo tushunmaganligi namoyon bo‘ladi va “0” ball beriladi.**

Javobda Joshning hech qanday harakatlari ifoda etilmaydi. Noaniq, matn bilan bog‘liq bo‘lmagan yoki savoldagi so‘zlar takrorlanishi mumkin.

*Masalan:*

-U mehribon.

-U xudbin emas.

## "TIKUVCHI"

### TIKUVCHI, 1-SAVOL

To'g'ri javob: C

### TIKUVCHI, 2-SAVOL

To'g'ri javob: A

### TIKUVCHI, 3 – SAVOL

To'g'ri javob: D

### TIKUVCHI, 4 – SAVOL

To'g'ri javob: D

### TIKUVCHI, 5 – SAVOL

To'g'ri javob: B

### TIKUVCHI, 6 – SAVOL

To'g'ri javob: C

### TIKUVCHI 7 – SAVOL

To'g'ri javob: B

### TIKUVCHI, 8 – SAVOL

**Nima uchun Totio Sofiyaga mijozlara g'amxo'rlik qilishi kerakligini aytdi?**

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo'lsa, javob qabul qilinadi va "1" ball beriladi.**

Totio nima uchun Sofiyaga bu maslahatni berganligi haqida aniq xulosani beradi. Quyidagi yo'nalishlarning birida ifodalangan.

- Javob Totio, Sofiyaning tijorati muvaffaqiyatli bo'lishini xohlaganligi tushunchasini ifodalaydi.
- Javob mijozlarga yaxshi muomlada bo'lishga yarasha javob olish mumkinligi uchun ahamiyatli.
- Javob Sofiyaning yangi tijoratida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ahamiyatga ega.

Javob Totioning biznesi yoki mijozlar haqidagi kechinmalari, boshlagan ishini davomiyligiga koʻra ahamiyatliligi

## TIKUVCHI, 9 – SAVOL

**Totioni Sofiya bilan xayrlashganda, uning qoʻlini uzoq vaqt ushlab turdi. Bu sizga Totioning hissiyotlari haqida nimani namoyon qilayapti?**

**Quyidagi mazmunda javob berilgan boʻlsa, javob qabul qilinadi va "1" ball beriladi.**

Totio xayrlashayotganda ichidan oʻtkazgan barcha his tuygʻularini aniq izohlashni ta'minlaydi.

-Javob Totio Sofiyani yaxshi koʻrib, unga yaxshilikni ravo koʻrishi tushunchasini ifodaydi.

-Javob Totio biznesini Sofiyaga topshirishga ishonganligi tushunchasini ifodalaydi.

-Javob Totio oʻz biznesini va Sofiyani tashlab ketayotgani qiyin boʻlayotganiga e'tibor qaratadi.

## TIKUVCHI, 10 – SAVOL

**Totioning Sofiya uchun qilgan eng foydali ishi nima edi?**

**Nima uchun bu eng foydali ekanligini tushuntiring.**

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, oʻquvchining matnni toʻliq tushunganligi namoyon boʻladi va "2" ball beriladi.**

Hikoyadan kelib chiqib Totioning harakatlari muhimligini toʻliq tushunganligini ifodalaydi. Javob birgina Totio Sofiyaga tikuvchi boʻlishiga yordam berganligi va nima uchun bu eng yaxshi yordam ekanligini ifodalaydi. Tushuncha Totioning yordami va Sofiyaning kelajakdagi tikuvchilik muvaqqiyatini bogʻlaydi.

**Quyidagi mazmunda javob berilgan boʻlsa, javob qabul qilinadi va "1" ball beriladi.**

Quyidagi yoʻllar bilan Totioning yordamini qisman tushunish ifodalanadi.

- Javob birgina Totio Sofiyaga tikuvchi boʻlishiga yordam berganini ifodalaydi. Shunga koʻra nima uchun aynan yordam bergani izohsiz.

- Javob nima uchun foydali boʻlganini tushuntirib berishni ta'minlashi mumkin. Shunga koʻra tushuncha Totioning yordami va Sofiyaning kelajakdagi muvafaqqiyatli tikiuvchilik biznesini bogʻlamaydi.

## TIKUVCHI, 11-SAVOL

**Hikoyada Sofiya turli xil tuyg‘ularni boshidan kechiradi. Uning his qilgan uchta turli tuyg‘ularini yozing va nima uchun har bir tuyg‘uni boshdan kechirganini tushuntiring.**

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o‘quvchining matnni keng tushunganligi namoyon bo‘ladi va “3” ball beriladi.**

Hikoyadan kelib chiqib Sofiyaning his tuyg‘ularini aniqlik bilan keng qamrovli ifodalaydi. Javob uchta aniq kechinmalarni va har bir kechinmaning tushunchasi aniqligini ta’minlaydi.

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o‘quvchining matnni qoniqarli tushunganligi namoyon bo‘ladi va “2” ball beriladi.**

Hikoyaning bittadan ortiq qismidan kelib chiqib Sofiyaning his tuyg‘ularini qoniqarli ifodalaydi. Javob kamida ikkita kechinmasini keltirib beradi v bitta kechinmaning tushunchasini ta’minlaydi

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o‘quvchining matnni minimal tushunganligi namoyon bo‘ladi va “1” ball beriladi.**

Hikoyaning bir qismidan kelib chiqib Sofiyaning his tuyg‘usini minimal tushunish darajasini ifodalaydi. Javob kamida bitta aniq kechinmani va uning aniq tushunchasini ifodalaydi.

## TIKUVCHI, 12 – SAVOL

To‘g‘ri javob: A

## TIKUVCHI, 13 – SAVOL

**“Hayot o‘zgaradi va davom etadi” sarlavhasi bu hikoya uchun boshqa bir yaxshi sarlavha bo‘la oladimi?**

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o‘quvchining matnni to‘liq tushunganligi namoyon bo‘ladi va “2” ball beriladi.**

Muqobil sarlavhani sharxlash matnning mavzusini to‘liq tushunishni ifodalaydi. Javob hikoya o‘zgaruvhcanlik va davomiylik haqida ekanligi va hikoya ikkala tomon elementlariga ham bog‘likligi tushunchasini ifodalaydi.

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o‘quvchining matnni qisman tushunganligi namoyon bo‘ladi va “1” ball beriladi.**

Muqobil sarlavhani sharxlash matn mavzusini qisman tushunishni ifodalaydi. Javob matn mavzusining faqatgina bir tomoni o‘zgaruvchanlik yoki davomiylik tushunchasini ifodalaydi.

# Chorining qobiliyati

## CHORINING QOBILIYATI, 1-SAVOL

To‘g‘ri javob: A

## CHORINING QOBILIYATI, 2-SAVOL

**Kim futbol turniriga tayyorlanayotgan edi?**

*Jarayon: Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotni topish*

*Quyidagi mazmunda javob berilgan bo‘lsa, javob qabul qilinadi va “1” ball beriladi.*

Javobda Chorining do‘sti Davron o‘zining futbol jamoasi bilan futbol turniriga tayyorlanayotganligi ifodalanadi.

*Masalan:*

- Davron

-Chorining do‘sti

-Davronning jamoasi

Javobda Chorining do‘sti Davron o‘zining jamoasi bilan futbol turniriga tayyorlanayotganligi ifodalanmaydi. Javobda savoldagi so‘zlar takrorlanishi mumkin.

## CHORINING QOBILIYATI, 3 – SAVOL

**Chori futbol o‘yini paytida bajargan ikkita ishni yozing.**

*Jarayon: Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotni topish*

Javobda o‘yin paytida Chorining oyoqlari chalishib ketib, raqib jamoasi uchun gol urib qo‘ygani ifodalanadi.

Javobda o‘yin paytida Chorining oyoqlari chalishib ketgani YOKI boshqa tomonga gol urib qo‘ygani ifodalanadi.

Javobda Chori futbol o‘yini paytida hech qaysi birini qilmaganligi ifodalanadi.

## CHORINING QOBILIYATI, 4-SAVOL

To‘g‘ri javob: B

## CHORINING QOBILIYATI, 5-SAVOL

**Yoz fasli uchun Jamilaning qanday rejalari bor edi?**

*Jarayon: Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish*

Javobda Jamila yoz fasli davomida konsertga tayyorlanayotgani ifodalanadi.

*Masalan:*

-Kuylash

-Konsertga tayyorlanish

Javobda Jamila yoz fasli davomida konsertga tayyorlanayotgani ifodalanmaydi. Javobda savoldagi so'zlar takrorlanishi mumkin.

## CHORINING QOBILIYATI, 6 – SAVOL

**Jamila bilan suhbatlashgandan keyin Chorining bog'bonchilik qilishga nisbatan fikri qanday bo'ldi?**

*Jarayon: To'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish*

Javobda Chori bog'bonchilik qilishga nisbatan ijobiy fikrda emasligi ifodalanadi.

*Masalan:*

-U buni ahmoqona ish deb o'yladi.

-U buni yoqtirmaydi.

Javobda Jamila bilan suhbatlashgandan so'ng Chorining bog'bonchilik qilishga nisbatan fikri salbiy ekanligi ifodalanmaydi. Javobda savoldagi so'zlar takrorlanishi mumkin.

## CHORINING QOBILIYATI, 7-SAVOL

To'g'ri javob: D

## CHORINING QOBILIYATI, 8 – SAVOL

**Nima uchun hay'at a'zosining yuzi burishdi?**

*Jarayon: To'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish*

Javobda hay'at a'zosi Chorini yaxshi qo'shiqchi deb o'ylamagani ifodalanadi.

*Masalan:*

- Chori yomon qo‘shiqchi edi.

- Unga Chorining kuylashi yoqmadi.

Javobda hay’at a’zosi Chorini yaxshi qo‘shiqchi deb o‘ylamagani sababli uning yuzi burishgani ifodalanmaydi. Javobda savoldagi so‘zlar takrorlanishi mumkin.

## CHORINING QOBILIYATI, 9 – SAVOL

**Chori yangi mashg‘ulotga urinib ko‘rganidan so‘ng nima qildi?**

*Jarayon: Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotni topish*

Javobda Chori yangi mashg‘ulotlardan voz kechib, bog‘bonchilikka qaytgani ifodalanadi.

*Masalan:*

- Boshini egganicha uyiga qaytib keldi.

- Vaqtini o‘zining bog‘ida o‘tkazar edi.

Javobda Chori yangi mashg‘ulotlardan voz kechib, bog‘bonchilikka qaytgani ifodalanmaydi. Javobda savoldagi so‘zlar takrorlanishi mumkin.

*Masalan:*

- U futbol o‘ynadi.

- U yig‘ladi.

## CHORINING QOBILIYATI, 10 – SAVOL

**Davronning futbol jamoasini yaxshi deb ayta olishingiz uchun qanday sabab bor?**

*Jarayon: To‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosalar chiqarish*

Javobda Davronning futbol jamoasi yaxshi ekanligi ularning futbol turnirida yutganliklari bilan ifodalanadi.

*Masalan:*

- Chunki uning futbol jamoasi turnirda yutdi.

Javobda Davronning futbol jamoasi yaxshi ekanligini bildiradigan biror aniq sabab keltirilmaydi. Javobda savoldagi so‘zlar takrorlanishi mumkin.

## CHORINING QOBILIYATI, 11-SAVOL

To‘g‘ri javob: C

## CHORINING QOBILIYATI, 12 – SAVOL

**Chori nimada eng zo‘r edi?**

*Jarayon: Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotni topish*

Javobda Chorining bog‘bonchilikda zo‘r bo‘lganligi ifodalanadi.

Javobda Chorining bog‘bonchilikda zo‘r bo‘lganligi ifodalanmaydi.
Javobda savoldagi so‘zlar takrorlanishi mumkin.

## CHORINING QOBILIYATI, 13 – SAVOL

To‘g‘ri javob: A

## CHORINING QOBILIYATI, 14 – SAVOL

To‘g‘ri javob: B

## CHORINING QOBILIYATI, 15 – SAVOL

To‘g‘ri javob: D

## XALOSKOR DELFIN

### XALOSKOR DELFIN, 1-SAVOL

To‘g‘ri javob: B

### XALOSKOR DELFIN, 2-SAVOL

To‘g‘ri javob: A

### XALOSKOR DELFIN, 3 – SAVOL

To‘g‘ri javob: C

### XALOSKOR DELFIN, 4-SAVOL

To‘g‘ri javob: D

### XALOSKOR DELFIN, 5-SAVOL

To‘g‘ri javob: A

### XALOSKOR DELFIN, 6 – SAVOL

**Sizning fikringizcha, g‘avvos ikkinchi marta sho‘ng‘ishi kerak edimi?**

**Iltimos tanlovingizni tekshiring.**

**______ Ha**

**______ Yo‘q**

**Nima uchun bunday fikrda ekaningizni tushuntirish uchun hikoyadan ikkita sabab keltiring.**

*Jarayon: G‘oyalar va ma’lumotni talqin qilish va uyg‘unlashtirish*

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o‘quvchining matnni to‘liq tushunganligi namoyon bo‘ladi va “2” ball beriladi.**

Javobda g‘avvosning qabul qilgan qaroriga mos keladigan, hikoyadan olingan ikkita muayyan ma’lumotga asoslangan shaxsiy mulohaza keltiriladi. Quyidagi qabul qilinadigan sabablar ro‘yxatiga qarang. O‘quvchilar javoblarni istalgan tartibda yozishlari mumkin. Shuni qayd etish lozim-ki, “Ha” yoki “Yo‘q” javob variantlariga asos keltirgan o‘quvchilarning javoblari to‘liq qabul qilinadi.

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o‘quvchining matnni qisman tushunganligi namoyon bo‘ladi va “1” ball beriladi**

Berilgan javobda “Ha” yoki “Yo‘q” javob variantlarini asoslash uchun

quyidagi ro‘yxatdan o‘rin olgan bitta sabab keltiriladi. Shuni qayd etish lozimki, bu ayni bir xil mazmunga ega bo‘lgan ikkita alohida jumla tarzida ham ifodalanishi mumkin.

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo‘lsa, javob qabul qilinmaydi va “0” ball beriladi.**

Javobda “Ha” yoki “Yo‘q” tanlangan yoki tanlanmagan bo‘lishi mumkin. Javob o‘quvchining shaxsiy mulohazasini tasdiqlash uchun keltirilgan noto‘g‘ri yoki matnga aloqador bo‘lmaydi yoki qo‘shimcha ma’lumot berilmasdan savol qayta yozilgan bo‘ladi. Javob matndan olingan tegishli ma’lumot bo‘lishi mumkin, ammo ushbu ma’lumot keltirilgan sababga mos kelmaydi.

*Masalan:*

» Ha. U ajoyib edi.

» Ha, u Bubuni ko‘rishni xohladi.

» U yana nimadir topmoqchi bo‘ldi.

» Yo‘q, bu ahmoqlik edi.

**Ikkinchi marta sho‘ng‘ishga doir qabul qilinadigan sabablar**

*Tilla zanjir qimmatbaho edi / u topgan eng katta xazina edi / u yanada ko‘proq xazina topishi mumkin edi.*

*Asom bunga rozi bo‘ldi.*

*G‘avvosning zanjirni 5 daqiqada olib chiqish imkoniyati bor edi.*

**Ikkinchi marta sho‘ng‘imaslikka doir qabul qilinadigan sabablar**

*Qayiq joyida turmasligi mumkin edi / u adashib qolishi mumkin edi.*

*Unga havo yetmay qolishi mumkin edi.*

*Asom xavotirga tushgan edi.*

*U Asomni xatarga qo‘yishi mumkin edi.*

*Bo‘ron yaqinlashayotgandi (yomon ob-havo / katta to‘lqinlar) / Bubu u yerda yo‘q edi.*

*Bu xavfli edi / u halok bo‘lishi (cho‘kib ketishi) mumkin edi/ Bubu uni qutqarishga kelmasligi mumkin edi.*

*Zanjirni olish qiyin bo‘lishi mumkin edi.*

*U boshqa payt qaytib kelishi mumkin edi*

## XALOSKOR DELFIN, 7-SAVOL

**Hikoyada g‘avvos ikkinchi marta suv yuzasiga ko‘tarilganda, qayiq ketib qolishi mumkinligi haqida ishoralar berilgan.**

**Hikoyadan buni bilib olishingiz mumkin bo‘lgan ikkita usulini**

**keltiring.**

*Jarayon: To'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish*

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o'quvchining matnni to'liq tushunganligi namoyon bo'ladi va "2" ball beriladi.**

Javobda g'avvos suv yuzasiga ko'tarilib, qayiqning ketib qolganini bilguniga qadar bo'lgan hikoya tafsilotlarini tushungani ifoda etiladi.

Javobda quyida berilgan ro'yxatdan istalgan ikkita tafsilot keltiriladi.

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o'quvchining matnni qisman tushunganligi namoyon bo'ladi va "1" ball beriladi**

Javob berishda quyida berilgan javob variantlaridan biridan foydalanish mumkin.

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo'lsa, javob qabul qilinmaydi va "0" ball beriladi**

Javobda g'avvosni ikkinchi marta suv yuzasiga ko'tarilganidan so'ng hikoyada berilgan tafsilotlar keltiriladi.

*Masalan:*

»Qayiq ketib qolgan edi.

Yoki javobda noto'g'ri yoki hikoya tafsilotlariga mos kelmaydigan ma'lumotlar keltiriladi.

*Masalan:*

» Uning havosi tugab borayotgan edi.

» Asom qayiqni boshqarib borar edi.

**Qayiqning yo'q bo'lib qolganini oldindan bilishga doir tafsilotlar**

*5 metrgacha balandlikdagi to'lqin/ kuchli bo'ron/to'fon.*

*Qayiq langar arqonlariga tiralib qolgan edi.*

*"Langar arqoni qayiqni yana 5-10 daqiqa tutib turishi mumkin edi".*

*Baland to'lqinlar qayiqni allaqachon sudrab ketgan bo'lishi mumkin.*

*Arqonlar 5 daqiqadan ortiq ushlab tura olmas edi.*

*Yomg'ir aralash kuchli bo'ron turgandi.*

*Qayiq langar arqonlariga tiralib turardi.*

*Asom shunday deydi. [Arqonlar qayiqni 5 daqiqadan ortiq ushlab tura olmasligi bilan bog'liq Asomning ogohlantirishi qabul qilinadigan javob ekaniga e'tibor bering.]*

## XALOSKOR DELFIN, 8 – SAVOL

To'g'ri javob: C

## XALOSKOR DELFIN, 9 – SAVOL

To‘g‘ri javob: B

## XALOSKOR DELFIN, 10 – SAVOL

To‘g‘ri javob: D

## XALOSKOR DELFIN, 11 – SAVOL

**G‘avvos ushbu hikoyadan qanday ikkita muhim saboq chiqarishi mumkin?**

**Javobingizni izohlash uchun hikoyadagi sodir bo‘lgan voqealardan foydalaning.**

*Jarayon: G‘oyalar va ma’lumotni talqin qilish va uyg‘unlashtirish*

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o‘quvchining matnni keng ma’noda tushunganligi namoyon bo‘ladi va “3” ball beriladi.**

Javobda ushbu hikoyadan bitta yuqori daraja va bitta hikoya darajasidagi saboq keltiriladi. Yuqori daraja saboqda ochko‘zlik, do‘stlik, hayot qadri yoki yaxshi amallar uchun mukofotlanish ilgari surilgan. Hikoya darajasidagi saboq esa hikoyadan chiqarilishi mumkin bo‘lgan aniq saboq keltirib o‘tilgan. Quyida berilgan ro‘yxatda qabul qilinadigan javob sifatida hikoya darajasi va yuqori darajadagi saboqlar keltirilgan.

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o‘quvchining matnni qoniqarli darajada tushunganligi namoyon bo‘ladi va “2” ball beriladi.**

Javobda hikoyadagi voqealardan chetlashgan bitta yuqori darajadagi saboq YOKI ikkita hikoya darajasidagi saboqlar keltiriladi. Quyida berilgan ro‘yxatda qabul qilinadigan javob sifatida saboqlar keltirilgan.

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o‘quvchining matnni minimal darajada tushunganligi namoyon bo‘ladi va “1” ball beriladi.**

Javobda quyida berilgan ro‘yxatdan bitta hikoya darajasidagi saboq keltirilgan.

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o‘quvchining matnni qoniqarsiz darajada tushunganligi namoyon bo‘ladi va “0” ball beriladi.**

Javobda hikoyaga asoslangan umumiy saboq berilgan bo‘lishi mumkin, ammo ushbu saboq hikoyaning umumiy mavzusi yoki mazmuniga mos emas yoki noto‘g‘ri, matnga aloqador bo‘lmagan ma’lumotlar keltirilgan.

*Masalan:*

» Bubuga e’tiborsizlik qilma

» Hech qachon suvga yolgʻiz shoʻngʻimang (umumiy fikr – ushbu hikoyaga aloqador emas)

» Suvga shoʻngʻishda kerakli moslamalarni oʻzingiz bilan olib keling.

**Qabul qilinadigan saboqlar (yuqori daraja)**

*Hech qanday oltin hayotingizdan afzal emas. /Oltin yoki moddiy narsalarga berilmang.*

*Yaxshilikning mukofoti bor.*

*Oʻzingiz yoki oʻzgalar hayotini xavf ostiga qoʻymang (boshqalarni oʻylang).*

*Tabiatning qudratiga past baho bermang.*

*Tilla oʻz hayotingizni xavf ostiga qoʻyishga arzimaydi.*

*Doʻstlik hayotingizni saqlab qolishi mumkin.*

*Doʻstlar moddiy narsalardan muhimroqdir.*

*Yaxshi amallar yaxshi amallar bilan mukofotlanadi.*

**Qabul qilinadigan saboqlar (hikoya darajasi)**

*Biladiganlarga doim quloq tuting.*

*Delfin bilan doʻst tutining, chunki u sizga qiyinchilikda yordam berishi mumkin.*

*Ob-havo yomon boʻlgan vaqtda suvga shoʻngʻimaslik kerak.*

*Sizni xavfdan ogoh etadigan insonlarga quloq tuting.*

# AFRIKA KARKIDONLARI VA OKSPEKER QUSHLARI

## AFRIKA KARKIDONLARI VA OKSPEKER QUSHLARI, 1 – SAVOL

**Siz okspekerlarni qayerdan topishingiz mumkin?**

*Jarayon: Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish*

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo'lsa, javob qabul qilinadi va "1" ball beriladi.**

Javobda okspekerlarni karkidonlarning ustidan topish mumkinligi ifoda etiladi.

*Masalan:*

-Ular karkidonlarning ustida yashaydilar.

-Karkidonlar ustida.

Okspekerlarni Afrikadan topish mumkinligini ifodalaydigan javob ham qabul qilinadi.

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo'lsa, javob qabul qilinmaydi va "0" ball beriladi.**

Javobda okspekerlar karkidonlarning ustida yoki Afrikada yashashi ifoda etilmaydi. Javob noaniq bo'lishi, matn bilan bog'liq bo'lmasligi yoki savoldagi so'zlarni takrorlashi mumkin.

*Masalan:*

- Uning orqasida.

## AFRIKA KARKIDONLARI VA OKSPEKER QUSHLARI, 2 – SAVOL

To'g'ri javob: D

## AFRIKA KARKIDONLARI VA OKSPEKER QUSHLARI, 3– SAVOL

To'g'ri javob: B

## AFRIKA KARKIDONLARI VA OKSPEKER QUSHLARI, 4– SAVOL

**Jadvalga qarang. Okspekerning vazni qancha?**

*Jarayon: Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish*

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo'lsa, javob qabul qilinadi va "1" ball beriladi.**

Javobda okspekerning 0,5 kilogramm ekani ifoda etiladi. Javobda o'lchov birligining ko'rsatkichi ham ifoda etilishi zarur.

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo'lsa, javob qabul qilinmaydi va**

**“0” ball beriladi.**

Javobda okspekerning 0,5 kilogramm ekani ifoda etilmaydi.

*Masalan:*

- 0,5.

## AFRIKA KARKIDONLARI VA OKSPEKER QUSHLARI, 5 – SAVOL

**Karkidonning bo‘yi qancha?**

*Jarayon: Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotni topish*

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo‘lsa, javob qabul qilinadi va “1” ball beriladi**

Javobda karkidonning bo‘yi 1,8 metr ekani ifoda etiladi. Javobda o‘lchov birligining ko‘rsatkichi ham ifoda etilishi zarur.

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo‘lsa, javob qabul qilinmaydi va “0” ball beriladi.**

Javobda karkidonning bo‘yi 1,8 metr ekani ifoda etilmaydi.

## AFRIKA KARKIDONLARI VA OKSPEKER QUSHLARI, 6– SAVOL

To‘g‘ri javob: C

## AFRIKA KARKIDONLARI VA OKSPEKER QUSHLARI, 7 – SAVOL

**Karkidonlar nima bilan oziqlanadi?**

*Jarayon: Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotni topish*

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo‘lsa, javob qabul qilinadi va “1” ball beriladi.**

Javobda karkidonlarning quyidagilardan kamida bittasi bilan oziqlanishi ifoda etiladi: o‘tlar/barglar/daraxtlar/butalar/o‘simliklar. Noto‘g‘ri javoblar qabul qilinmaydi.

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo‘lsa, javob qabul qilinmaydi va “0” ball beriladi.**

Javobda karkidonlarning o‘tlar/barglar/daraxtlar/butalar/o‘simliklar bilan oziqlanishi ifoda etilmaydi. Javob noaniq bo‘lishi, matn bilan bog‘liq bo‘lmasligi yoki savoldagi so‘zlarni takrorlashi mumkin.

*Masalan:*

- Kanalar.

## AFRIKA KARKIDONLARI VA OKSPEKER QUSHLARI, 8 – SAVOL

To‘g‘ri javob: B

## AFRIKA KARKIDONLARI VA OKSPEKER QUSHLARI, 9 – SAVOL

**Nima uchun kana karkidon uchun muammo ekanligini izohlang?**

*Jarayon: To‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosalar chiqarish*

**Quydagi mazmunda javob berilganda, o‘quvchining matnni to‘liq tushunganligi namoyon bo‘ladi va “2” ball beriladi.**

Javobda quyidagi sabablardan ikkitasi ko‘rsatilsa, kana nimaga karkidon uchun muammo tug‘dirishini to‘liq tushungan, deb hisoblanadi:

- Kana karkidonni tishlaydi/qonini so‘radi.
- Bu karkidonlarga qichishish/noqulaylik tug‘diradi.
- Ularning sezgir terisi bor.

*Masalan:*

-Kanalar karkidonni qonini so‘rib oladi va karkidonlar tanasida qichishishni his qiladi.

-Karkidonlarning sezgir terisi bor va ularga kananing tishlashi yoqmaydi.

**Quydagi mazmunda javob berilganda, o‘quvchining matnni qisman tushunganligi namoyon bo‘ladi va “1” ball beriladi.**

Javobda quyidagi sabablardan bittasi ko‘rsatilsa, kana nimaga karkidon uchun muammo tug‘dirishini qisman tushungan, deb hisoblanadi.

*Masalan:*

-Ular karkidonning qonini so‘radilar.

-Karkidon qichishishni his qiladi.

**Quyidagi mazmunda javob berilganda, o‘quvchining matnni mutlaqo tushunmaganligi namoyon bo‘ladi va “0” ball beriladi.**

Javobda kana karkidon uchun qanday muammo tug‘dirisihi ifoda etilmaydi. Javob noaniq bo‘lishi, matn bilan bog‘liq bo‘lmasligi yoki savoldagi so‘zlarni takrorlashi mumkin.

*Masalan:*

- Ularning terisi qattiq.

## AFRIKA KARKIDONLARI VA OKSPEKER QUSHLARI, 10 – SAVOL

To‘g‘ri javob: D

## AFRIKA KARKIDONLARI VA OKSPEKER QUSHLARI, 11 – SAVOL

**Karkidonlar kanalardan qutulish uchun nima qilishadi?**

*Jarayon: Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish*

**Quydagi mazmunda javob berilgan bo'lsa, javob qabul qilinadi va "1" ball beriladi.**

Javobda karkidonlar kanalardan qutulish uchun (daraxtlar/toshlarga) ishqalanishlari ifoda etiladi.

*Masalan:*

-Ular ko'p vaqtlarini ishqalanish bilan o'tkazadilar.

-Ishqalanish.

-O'zlarini daraxtlarga ishqalaydilar.

**Quyidagi mazmunda javob berilgan bo'lsa, javob qabul qilinmaydi va "0" ball beriladi.**

Javobda karkidonlar kanalardan qutulish uchun (daraxtlar/toshlarga) ishqalanishlari ifoda etilmaydi. Javob noaniq bo'lishi, matn bilan bog'liq bo'lmasligi yoki savoldagi so'zlarni takrorlashi mumkin.

## AFRIKA KARKIDONLARI VA OKSPEKER QUSHLARI, 12 – SAVOL

**Okspekerning quyidagi a'zolari qanday tuzilishga ega?**

**Uning dumi__________________.**

